

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

M O N O G R A F I Y A

**TO‘RABEKOVA AZIZA MIRZABEK QIZI
NASRIDDINOVA NASIBA ALIMJONOVNA**

**XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARINI
O‘QITISH METODIKASI**

Guliston – 2021

M U N D A R I J A

KIRISH.....	3
I BOB. XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARINI O‘QITISH METODIKASINING NAZARIY ASOSLARI	
1.1. Boshlang‘ich sinflarda xalq og‘zaki ijodi asarlarini zamonaviy usullarda o‘rgatish pedagogik muammo sifatida	9
1.2. Xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘quvchilarga zamonaviy usullarda o‘rgatishning pedagogik imkoniyatlari.....	22
Birinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	34
II BOB. XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARINI ZAMONAVIY USULLARDA O‘QITISHNING SAMARADORLIGI	
2.1. Epik turdagi folklor asarlarini o‘qitishda zamonaviy yondashuv.....	36
2.2. Lirik va kichik janrlardagi folklor asarlarini o‘qitishning o‘ziga xosligi Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	61
III BOB. XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARINI O‘QITISHNING SAMARADORLIK DARAJASI	
3.1. Maktabda xalq og‘zaki ijodi namunalarini zamonaviy usullar asosida o‘rgatish omillari.....	72
Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	77
UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR.....	80
ILOVALAR.....	82
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	89

Kirish

Xalq og‘zaki ijodi namunalari azaldan xalqni, ayniqsa, yosh avlodni insonparvarlik, Vatanga muhabbat, rostgo‘ylik va halollik, mehnatsevarlik, xushmuomalalik va kamtarlik ruhida tarbiyalab kelgan.

Ta‘lim jarayonida o‘quvchi-yoshlar o‘rtasida xalq og‘zaki ijodi namunalaridagi yetuk g‘oyalarni singdirish, ibratli xususiyatlarni shakllantirish katta o‘rin tutadi. Buning uchun kitobxonlik darajasini yuqoriga ko‘tarmoq lozim. Prezidentimiz Farmonlarida yoshlar o‘rtasida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishda bir qator muammolar mavjudligi misollar bilan ta‘kidlanadi¹. Yurtboshimiz tomonidan ko‘tarilgan ushbu muammo muhim didaktik zarurat hisoblanadi.

Bugungi kunda xalqimiz hayotida buyuk o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Barcha jabhada, jumladan, iqtisodiy, madaniy, ilmiy, sog‘liqni saqlash, ayniqsa, ta‘lim sohasidagi hech kimning hayoliga ham kelmagan mislsiz o‘zgarishlar, rivojlanishlar yuz berdi. Xalq ta‘limi sohasida olib borilayotgan tub islohotlar o‘z samarasini bermoqda.

Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev ta‘kidlab o‘tganidek, “Ta‘lim va tarbiya, ilm-fan, sog‘liqni saqlash, madaniyat va san‘at, sportni rivojlantirish masalalari, yoshlarimizning chuqur bilimga ega bo‘lishi, chet tillarini va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta egallashini ta‘minlash doimiy ustuvor vazifamiz bo‘lib qoladi”.²

Umumta‘lim maktablari uchun barcha o‘quv fanlari bilan bir qatorda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun yaratilgan o‘qish darsligi ham davlat ta‘lim standartiga mos ravishda yaratilgan. Maktab o‘quvchilari o‘z xalqining boy og‘zaki ijodi bilan birga taniqli shoir va yozuvchilar ijodi bilan tanishib, ularning

¹ Mirziyoyev Sh. M. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida P/F. 2017. 12- yanvar.

² Mirziyoyev Sh.M “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.” - T.: O‘zbekiston, 2017. 16-b. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi nutq. 2016 -yil , 8- sentabr.

merosidan bahramand bo'lishi, dunyoqarashi, ongi va tafakkurini zamonga xos shakllantirib, yurtimizning barkamol avlodi bo'lib yetishmoqda.

Hozirda har bir sinfga mo'ljallangan fan dasturlari qayta tayyorlandi. Mazkur fan dasturlarida o'zbek xalq og'zaki ijodi, jumladan, qoraqalpoq, qozoq, turkman, jahon adabiyoti namunalarining o'qitilishi – xalqlar orasidagi asrlar bo'yi saqlanib kelinayotgan qardoshlik rishtalarini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rganish boshlang'ich sinflardan boshlanadi. Quyi sinflarda folklor materiallarini puxta o'rganish o'quvchilarda xalq ijodiga mehr uyg'otadi, ularning yuqori sinflardagi faoliyatlarida ijobiy rol o'ynaydi.

Yurtimizda o'zbek xalq ertaklarining audio varianti yaratilmoqda. Loyiha "Bolalik kunlarimda" deb nomlanib, "Telegram" ijtimoiy tarmog'idagi https://t.me/bolalik_kunlarimda kanaliga o'zbek va rus tillarida joylashtirib borilishi rejalashtirilmoqda³ (hozirda bu ishlar amalga oshirilmoqda).

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'rganiladigan xalq og'zaki ijodi namunalari janr va g'oya jihatidan rang-barang bo'lishi bilan birga, ayrim o'rinlarda o'ziga xos murakkablik kasb etadi. Xususan, xalq og'zaki ijodi mavzusida yaratilgan asarlarning ayrimlari boshlang'ich ta'lim maktablarining 1-4-sinf o'quvchilari tomonidan birdek o'zlashtirilmaydi. Hozirgi kunda ilg'or zamonaviy usullar esa o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, shuningdek, hayotiy tajribalariga tayangan holda o'quv dasturida o'z ifodasini topgan mavzularning ma'lum andoza (kichik model)larda aks ettirilishi, kichik guruhlar asosida umumiy matnlarning muayyan qismlarini puxta o'zlashtirilishiga yordam beradi. Noan'anaviy shaklda tashkil etilayotgan darslar o'quvchilarni jamoa hamda guruh ishtirokida faoliyat yuritish ko'nikmalarini shakllantirish bilan birga o'zgalar fikrini tinglash, o'zining mustaqil qarashlarini ilgari surish, ularni dalillash, mavzu yuzasidan bildirilayotgan fikrlarni umumlashtirish, ular

³.Bahodirova N. Eshitib anglash boshqacha. "Yoshlar ovozi" gazetasi. 2019. 15-son.

orasidan eng muhimlarini tanlab olish, shuningdek, yakuniy xulosaga kelish imkoniyati yaratiladiki, natijada o'quvchilarda o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish va ehtiyoj yuzaga keladi hamda rivojlanib boradi.

Ilm-fan bir joyda to'xtab qolmaganidek, mana shu ilmlarni o'rgatish turi ham to'xtamaydi, balki takomillashib, zamon talabiga mos tarzda o'zgarib boradi. Buning yorqin misoli tariqasida biz monografiyamizda xalq og'zaki ijodi namunalarini zamonaviy usullarda o'qitish orqali hozirgi yosh avlodga qadimda yaratilgan va xalqimiz asrlardan beri ardoqlab kelayotgan ajdodlarimizning boy merosini atroflicha, chuqur o'rgatib, ularning ongiga yetkazish va zamonaviy usullar orqali o'quvchilarda xalq og'zaki ijodi namunalariga bo'lgan muhabbat va faxr tuyg'ularini singdirishni maqsad qilib qo'yganmiz.

Shuning uchun xalq og'zaki ijodi namunalarini zamonaviy usullarda o'qitishning ilmiy-metodik asoslarini belgilash, uni tashkil etish yo'llarini ishlab chiqish alohida dolzarblik kasb etadi.

Boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" darsligida turli badiiy va ilmiy ommabop asarlardan hamda xalq og'zaki ijodidan namunalar berilgan. Jumladan, darsliklar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilari A. Obidjon, A. Oripov, H. Nazir, A. Avloniy, M. A'zam, X. To'xtaboyev, G'ayraty, S. Anorboyev, S. Jo'ra, G'. G'ulom, Oybek, Safo Ochil, M. Murodov kabi bir qator o'zbek adabiyoti vakillari, shoir va yozuvchilarining asarlari bilan hamda xalq og'zaki ijodiga mansub asarlar: ertak, maqol, topishmoq, tez aytish, xalq qo'shiqlari bilan yaqindan tanishadilar. Ayniqsa, Quddus Muhammadiy, Po'lat Mo'min, Xudoyberdi To'xtaboyev, Anvar Obidjon, Hamza Imomberdiyev kabi shoir va yozuvchilarning asarlari o'zbek bolalar adabiyoti rivojiga munosib hissa bo'lib qo'shilgan.

Bolalar ertaklarining yaratilishiga ko'ra yana bir turi — yozma ertaklar ham mavjudki, u jahon adabiyoti, xususan, o'zbek yozma adabiyotining katta qismini tashkil etadi. Keyingi ikki-uch yuz yillikda fransuz ertakchisi Sharl Perro, nemis ertaknavislari Ernst Teodor Amadey Gofman, aka-uka Yakob Grimm va Velgelm-Karl Grimmlar, daniyalik Hans Kristian Andersen, angliyalik Oskar Uayld, rus

ertakchilari A.S.Pushkin ijodining roppa-rosa o'n yilini faqat bolalar uchun hikmatli hikoyalar va ertaklar yaratishga bag'ishlagan. L.N.Tolstoy yozma ertakchilikni rivojlantirishga katta hissa qo'shdi. O'zbek yozma ertakchiligi ham katta tarixga ega.

Jadid bobolarimiz Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy o'zlari tuzgan maktab darsliklari uchun ko'plab ibratli ertaklar yaratdilar.

Xalq og'zaki ijodini tadqiq etish ishiga B.Sarimsoqov⁴, O.Safarov⁵, T.Mullaboyev⁶, O.Madayev⁷lar o'zlarining katta ulushini qo'shganlar.

Olima Z.Husainova o'zbek xalq topishmoqlarining o'quvchilar aqliy tarbiyasiga ta'sirini tadqiq etgan. Olimaning ishlarida topishmoqlarning o'quvchi ilmiy faoliyatidagi o'rni va aynan topishmoqlarning o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, taqqoslashi, xulosalar chiqarishi, tez va mantiqiy tafakkurini rivojlantiruvchi vosita ekanligi ko'rsatib berilgan.

H.Zarifov, M.Afzalov, M.Alaviya, Z.Husainova, J.Qobulniyozov, M.Saidov, T.Mirzayev, K.Imomov, M.Murodov, B.Sarimsoqov, O.Safarov, A.Musaqulov, M.Jo'rayev, U.Jumanazarov, Sh.Turdimov, J.Eshonqul va boshqa taniqli folklorshunos olimlar tomonidan bildirilgan ilmiy tadqiqotlar, darsliklar (H.Razzoqov, T.Mirzayev, O.Sobirov, K.Imomov) e'lon qilindi. 1990-yilda K.Imomov, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, O.Safarovlar muallifligida ("O'qituvchi" nashriyoti) "O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi" darsligini nashrdan chiqardi. Bu darsliklarda xalq og'zaki ijodiga oid ma'lumotlar folklorshunoslik nuqtai nazaridan ilmiy asosda o'z ifodasini topgan. Zero, hozirgi paytda xalq maqollari, qo'shiqlari, ertaklari, doston va boshqa janrlarini bilish barkamol avlodning burchiga aylanganiga guvohmiz. Binobarin, ularda xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rgatishning zamonaviy usullarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish yo'llari ko'rsatilmagan.

⁴ Sarimsoqov B. Marosim folklori. O'zbek xalq ogzaki poetik ijodi. - T.: O'qituvchi, 1990. -116 b.

⁵ Safarov O. Folklor - bebaho boylik. - T.: Muharrir, 2010. 231-284-betlar.

⁶ Mullaboyev T. Topishmoqlar. - T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001. -.24 b.

⁷ Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. -T.: Mumtoz so'z, 2010. -228 b.

Adabiy ta'lim va uni tashkil etishda samaradorlikka erishish muammosi bir qator tadqiqotchilar e'tiborini o'ziga tortdi va mazkur yo'nalishda tadqiqotlar olib borildi. I.Mirzayeva⁸ M.Jumaniyozova va Sh.Qalandarova⁹, Sh.Jabborov¹⁰larning ishlarni ko'rsatish mumkin. Shu bilan birga, boshlang'ich sinf o'quvchilarida insoniy fazilatlarni shakllantirish, ularni ma'naviyatli inson qilib (Xalq og'zaki ijodi materiallari asosida) tarbiyalashga bag'ishlangan ilmiy-metodik maqolalar ham mavjud. Xususan, X. To'raqulov va A. Baltayeva¹¹, F.Qodirova, Sh.Tashpulatova¹², Vahidova¹³larning maqolalarida bu masalalar atroflicha o'z aksini topgan.

Maktablarda xalq og'zaki ijodi namunalari o'rganib kelinsa-da, uni o'quvchilarga o'rgatishning samaradorligini oshirish yo'llari yetarlicha ilmiy tadqiq etilmagan.

Xalq og'zaki ijodi namunalarini zamonaviy usullarda o'qitish metodikasini nazariy jihatdan asoslash zarurati ushbu monografiyani yozishga zamin hozirladi, desak mobolag'a bo'lmaydi.

Shundan kelib chiqib, ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalarni** bajarish talab etiladi:

- xalq og'zaki ijodi namunalarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
- boshlang'ich sinflarda xalq og'zaki ijodi asarlarini o'rgatishning nazariy-metodik asoslari tadqiq qilish;
- xalq og'zaki ijodi namunalarini tahlil etish orqali jamiyatda komil insonni tarbiyalashdagi o'rnini ko'rsatish;
- folklor asarlarining maktablarda o'qitilish jarayonini tahlil qilish, ularga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish;

⁸ Mirzayeva I. "Boshlang'ich sinflarda xalq og'zaki ijodini o'rganish. -T.: "O'qituvchi", 1979.

⁹ Jumaniyozova M, Qalandarova Sh. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida dostonlardan parchalarni o'qish metodikasi //Tafakkur ziyosi, XXI tom.- Urganch, 2010, 60- 63- betlar.

¹⁰ Jabborov Sh. "Xalq og'zaki ijodidan foydalanish. //"Boshlang'ich ta'lim", 2011, 2-son, 28-29-betlar.

¹¹ To'raqulov X, Baltayeva A. Milliy-ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish. //Boshlang'ich ta'lim, 2008, 11-son, 4-bet.

¹² F.Qodirova, Sh.Tashpulatova. Bolalar bog'chasida metodik ishlar (darslik). -T.: "Voriz nashriyot",2012.

¹³ Vahidova H. Milliy g'urur ruhida tarbiyalash (Xalq og'zaki ijodi materiallari asosida) //Boshlang'ich ta'lim, 2009, 14-son, 2-3-betlar.

- xalq ogʻzaki ijodi namunalarini oʻrgatishning samarali shakl, metod va vositalari tizimini belgilash.

- xalq ogʻzaki ijodi namunalarini oʻrgatishning zamonaviy usullari tizimini tajriba-sinovdan oʻtkazish va uning samaradorligini isbotlash.

I BOB. XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARINI O‘QITISH METODIKASINING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Boshlang‘ich sinflarda xalq og‘zaki ijodi asarlarini zamonaviy usullarda o‘rgatish pedagogik muammo sifatida

Adabiyot inson ruhiyatiga oluvchi ta’sir kuchi jihatidan hamisha boshqa ma’naviy sohalardan ustun bo‘lib kelgan.

Hali insoniyat yozish-o‘qishni bilmagan paytlarda yoshlarga ta’lim-tarbiya berish haqidagi qarashlar xalq og‘zaki ijodi namunalarida aks etgan. Uzoq davrlar tajribada sinalib, sayqallanib borgan. Kuchli tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish darajasiga etgan.

2008-yilda “Ma’naviyat” nashriyoti Birinchi Prezidentimiz I.Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” deb atalgan kitobini nashrdan chiqardi. Avvalo, aytish kerakki, kitobxon asarning boshidan oxirigacha xalq qadriyatlari, o‘tmish, madaniyat, tarix haqidagi chuqur ilmiy mulohazalar bilan tanishadi. Ayniqsa, muallifning xalq og‘zaki ijodiga bo‘lgan hurmati har bir sahifada aniq ifodalanib turadi: “Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo‘lyozmalar... bizning buyuk ma’naviy boyligimizdir”¹⁴. Birinchi Prezidentimizning ushbu kitobi dasturulamal manbalardan biri sifatida o‘z o‘rniga ega.

Bugun maktabning vazifasi bilimli o‘quvchilar tayyorlash bilan birga ma’naviy va axloqiy barkamol shaxslarni shakllantirishdan ham iborat. Bunday ijtimoiy ahamiyatli umummilliy vazifani bajarishda o‘quvchilarga xalq og‘zaki ijodi namunalari bilan yaqinroqdan tanishish imkoniyatini yaratish muhim didaktik zarurat hisoblanadi.

¹⁴ Karimov I. Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. 31-b.

Boshlang'ich sinflarda dars beradigan har bir muallim bolalar adabiyotini nechog'lik yaxshi bilsa, o'zi bilganini sinfga, ya'ni hayotga tatbiq etsa, demak yosh avlodni komil inson bo'lib kamol topishiga ko'mak bergan bo'ladi.

O'quvchi xalq og'zaki ijodi namunalari olamiga chuqur kirgani sari o'zida shaxslik sifatlarini kashf eta boradi. Chunki ular o'quvchilarda mehr, hurmat, otanaga, Vatanga sadoqat kabi insoniy fazilatlarni uyg'otadi. Aslini olganda, xalq dostonlari, ertaklari, qo'shiqlari, maqollari va boshqa o'nlab janrdagi asarlar yosh avlodning ma'naviyatini boyitish, uni haqiqiy inson darajasiga yetishini ta'minlash maqsadini nazarda tutgan holda yaratilgan¹⁵.

Umumta'lim maktablarida o'qitiladigan fanlar orasida adabiyot predmeti o'quvchilarda ezgu ma'naviy sifatlarni shakllantirishda yetakchi mavqeda turadi.

Adabiyot o'qituvchisi o'z o'quvchilarida epik asar zamiridagi badiiy ma'noni ilg'ay olishi va mantiqiy xulosaga kela bilish malakasini shakllantirishi muhim vazifa hisoblanadi¹⁶. Chunki adabiyot inson ma'naviy qiyofasini tashkil etadigan ruhiy holat, tushuncha, tasavvur, kayfiyat, orzu-umid, mayl va qiziqishlarni yuzaga keltirishning beqiyos imkoniyatlariga egadir. U o'quvchilar ma'naviy dunyosini qaror toptirishning chegarasiz maydonidir¹⁷.

Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi o'qish darslarida amalga oshiriladi.

Boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" darsligi ham "O'qish va nutq o'stirish" dasturi, Davlat ta'limi standarti talablariga javob beruvchi konsepsiya asosida tuzilgan. Unda g'oyaviy, tematik, estetik, qisman mavsumiy tizimlar hisobga olingan. U o'z navbatida bolaning tevarak atrofdagi voqelikni idrok etishni ko'zda tutadi.

Boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" darsligida berilgan xalq og'zaki ijodiga mansub materiallarni o'qish jarayonida o'quvchilar nafaqat o'zbek xalqining

¹⁵ Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. –T.: Mumtoz so'z, 2010. 16-, 6

¹⁶ Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. –T.: "O'qituvchi", 1996. 126-127 b.

¹⁷ M. Sariboyeva. Umumta'lim maktablarida Alisher Navoiy epik asarlarini zamonaviy usullarda o'rgatish. Ped. fan. nom... diss. –T.: 2011. 12 - b

o'lmas ma'naviyat buloqlaridan bahramand bo'ladilar, balki o'zlari ham sevib o'qigan ertak-dostonlardagi qahramonlar kabi vatanparvar, mard, jasur, to'g'riso'z, mehnatsevar, kamtar va mehribon insonlar bo'lib yetishishni orzu qiladilar. Ana shunday kishilar haqida tasavvur hosil qiladilar; ezgulikni hayotdagi o'rnini bilib oladilar. Bularning hammasi bola shaxsining shakillanishiga yordam beradi.

Xalq og'zaki ijodida ajdodlarimizning o'gitlar, xalq hurmat qiladigan odam bo'lishning qoidalari, Shiroq, To'maris, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi ona-yurtimiz farzandlarining botirliklari, xalqimizning urf-odatlari, milliy fazilatlarimiz haqida san'at darajasiga ko'tarilgan so'z tizimlaridan iborat maqol, qo'shiq, ertak, doston, bolalarga bag'ishlangan asarlar va boshqa janrlardagi namunalarda ifodasini topadi. Shuning uchun ham xalq og'zaki ijodini milliy qadriyatlar deb atash odat bo'lgan.

Xalq maqollari yordamida o'qituvchi bolani keng bilimlar dunyosiga yetaklaydi. Bola bilim olishga qadam qo'ygan kundan boshlab o'qish uning asosiy mashg'uloti bo'lib qoladi. Endi bola o'quvchi bo'lganidan keyin esa maktabning ma'lum qoidalariga bo'ysungan holda o'quv topshiriqlarini bajarishga, faqat o'ziga yoqqan narsalarnigina bilib qolmasdan, balki zarur bo'lgan paytda o'zini qiziqitirmayotgan narsalarni ham bajarishga to'g'ri keladi. Ana shunday vaqtda bolalar o'rtasida do'stlik o'rnatish, bir - birlariga yordam beradigan darajada tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Chunki bunday xususiyatlar bolani har qanday qiyinchiliklarni yengishga, ularda mustahkam irodani tarkib topib borishiga, qiziqishlar doirasining kengayishiga asos bo'ladi. Xalq maqollari yordamida o'quvchilarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash istiqlool talabidir. Buning uchun avvalo o'qituvchining o'zi ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak. Bu uning zimmasiga juda katta mas'uliyat yuklaydi.

Umuman, xalq maqollari yordamida bolalar qalbida mehnatsevarlik poydevori qo'yiladi. Bular: rostgo'ylik, halollik, to'g'rilik, do'stlik, o'rtoqlik,

saxiylik, hamjihatlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, xushmuomalalik, boshqalarga hurmat-izzat, katta-kichikka munosabat kabilar.

3-sinf “O‘qish kitobi”da berilgan “Do‘stlik”, “Kitob”, “Ilm-fan”, “Odob-axloq” haqidagi maqollar bolalarda ham estetik, ham axloqiy xulq - atvorni tarbiyalashga yordam beradi. Maqollardagi mazmun orqali ular isrofgarchilikka qarshi kurashishga, inson mehnatini ulug‘lashga, katta yoshdagi kishilarning pand-nasihatlariga e‘tibor qilib, o‘zlaridagi nuqsonlarning oldini olishga chaqiriladi.

Shuni aytish kerakki, xalq maqollari yordamidagi o‘quvchilar xarakter jihatdan o‘zaro farqlanib turadilar. Ularning ba‘zilarida o‘ylamasdan, mayllar va tasodifiy sabablar ta’sirida harakat qilishlar uchrab turadi. Buning asosiy sababi mazkur yoshdagi bolalar yosh bo‘lgani tufayli xatti - harakatlarini idora qila bilmasliklari va tashqaridan faol ta’sir etadigan vaziyatdan kelib chiqishi mumkin.

2-sinfning “O‘qish kitobi”da berilgan “Tansihatlik – tuman boylik”, “Kenja o‘g‘il”, “Eng yaxshi sovga”, “Aqlli bola” ertaklari ham bolalarga juda katta tarbiyaviy ozuqa beradigan kuchga egadir. Chunki bu kichik hajmdagi har bir ertakda, bola faoliyatiga, hatti - harakatlariga ta’sir qiladigan o‘rinlar mavjud. O‘qituvchining vazifasi darslikdagi ana shu ibratli misollarni asos qilib, ta’sirli darajada o‘quvchilarga o‘qitishdan iboratdir. Masalan, odamlarga g‘amxo‘r va shafqatli, e‘tiborli bo‘lishini ta’minlash uchun bolani ertakdagi voqea - hodisalarga jalb etilsa, unda mehnatsevarlik g‘oyalari paydo bo‘ladi. “Aqlli bola” ertagi misolida munozara tashkil etilsa, o‘quvchilarda yaxshi xislatlar: to‘g‘rilik, halollik, poklik kabi tushunchalar paydo bo‘ladi. Ular asar mazmunini o‘zlashtirib, ma’lum tarbiyaviy xulosalarga keladilar.

Xalq dahosining nodir yodgorliklari sifatida asrlar osha yashab kelayotgan doston janri o‘zining shakllanish davridan boshlab hozirgacha xalqimizning ma’naviy olamini munavvar qilishda o‘ziga xos mash’allik vazifasini bajarib olish vositalari paydo bo‘lmagan bir paytlarda xalq og‘zaki ijodining ro‘li nihoyatda

katta bo'lganligi o'z-o'zidan ma'lum. Xalq uchun esa ma'naviy oziqlanish hamisha hayotiy ehtiyoj bo'lib kelgan.

Biz mazkur masala bo'yicha o'z tajribalarimizni Sirdaryo viloyati, Guliston shahar 15-16-sonli o'rta maktabda amalga oshirdik. Tajriba natijalariga tayangan holda ushbu nazariy mulohazalarni e'tirof etdik. Insonning bolaligi o'tadigan maktabning xususiyati shundaki, unda ta'lim oluvchi har bir o'quvchi - shaxs shu ahil jamoa ko'z o'ngida shakllanadi. har bir o'quvchining hayot tarzi uning qobiliyati va iste'dodi xalq maqollari yordamida shakllanadi.

Demak, bugungi o'qituvchi - ta'lim sohasini tubdan isloh qilishi, o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlaridan to'la xalos etishi, ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy usullarni qo'llashi muhim ahamiyatga ega.

Xalq og'zaki ijodi ertak, doston afsona, rivoyat, qo'shiq, lapar, masal, maqol, topishmoq, latifa va naqlarni o'z ichiga oladi. Xalq og'zaki ijodi materiallarida ijtimoiy hodisalar, kurashlar vatanni dushmandan mudofaa qilish, xalqning orzu-umidlari, urf-odatlar, rasm-rusmlari, marosimlari va boshqa turmush hodisalari ifodalanadi.

Umumta'lim maktablari 1-4-sinflarida xalq og'zaki ijodi namunalaridan: 1-sinfda ertak, latifa, rivoyat, maqol, topishmoq, qo'shiq, 2-sinfda rivoyat, ertak, 3-sinfdan fantastik va adabiy ertaklar, alla, qo'shiq, latifa, rivoyat, maqol, topishmoq, masal, 4-sinfda ertak, masal, doston, maqol, topishmoq, rivoyatlar o'rganiladi. Ularning har birini o'rganishda o'ziga xos usul va shakllardan foydalanishga to'g'ri keladi.

Masalan, yetti yoshga kelib bola o'ziga yoqqan ertaklar nomlarini aytishi; senga qaysi kitob yoqadi? U nima haqida? Bu ertakda kimlar haqida hikoya qilinadi? Bu ertakda yana kimlar bor? Ular nima qildilar? Bularning barchasi qanday tugadi? kabi savollarga javob bera olishi mumkin. Suratlarni o'ziga tanish bo'lgan ertakdagi voqealar rivojiga qarab terib chiqishi mumkin. Agarda suratlar ichidan ortiqcha personajning surati chiqsa, bola uni chetga olib qo'yadi, biroq pedagog iltimosiga ko'ra, agar ushbu qahramon ham ertakda ishtirok etsa, nima

ro'y bergan bo'lishi mumkinligini o'ylab topadi. Mustaqil faoliyatda – o'yinda, rasm chizishda va boshqa kundalik vaziyatlarda adabiy obrazlardan foydalanadi.

Bola adabiy ertaklarda bayon qilingan voqealarni juda jiddiy qabul qiladi. O'ziga yoqib qolgan ertakni bir necha marta eshitishga ham tayyor. Uning qahramonlarini illyustratsiyalar va o'yinchoqlarda xursand bo'lib tanib oladi, har gal ertakning baxtli yakunini berilib kutgani holda syujet harakatlarining odatdagi ketma-ketligini sinchkovlik bilan kuzatib boradi.

Kichik yoshdagi bolalarga o'qib beriladigan ertaklar doirasini asosan o'zbek folklori ertak, maqol, qo'shiq, topishmoqlari tashkil qiladi. Ular eng yaxshi tarzda kichik yoshdagi bolalar ehtiyojlariga mos keladi, chunki, u so'z, ohang, musiqa va harakatni o'zida jamlagandir. Bolalar hayvonlar haqidagi xalq ertaklari bilan tanishadilar:

O'qituvchi bolalarga yaxshi ma'lum bo'lgan an'anaviy (hayvonlar va sehrgarlar haqida) xalq ertaklari va noan'anaviy (bolalar, tabiat xodisalari, predmetlar haqida) zamonaviy mualliflik ertaklari ruhida o'z ertaklarini to'qishlari uchun sharoit yaratib berishi lozim. Bolalarni ularning o'z hayotlarida yuz bergan qiziqarli voqealar haqida hikoyalar to'qishga undash zarur.

Bolalarning adabiy ertaklarning o'ziga xos tuzilmasi va tipik personajlari haqidagi tasavvurlaridan foydalangan holda pedagog ushbu elementlar asosida "Agarda bo'lsa, nima bo'lar edi?" toifasidagi ijodiy o'yinlarni uyushtirishi lozim. Bunday o'yinlarda tipik qahramonlar, syujet elementlari erkin qo'shiladi, natijada g'ayrioddiy va kutilmagan birikmalar vujudga keladi.

Shuningdek, obrazga kutilmagan va qarama-qarshi yo'nalish beruvchi alohida so'zlar va jaranglashlar bilan o'tkaziladigan o'yinlar ham muhimdir.

O'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagog ularni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirishda quyidagi rivojlantirish vazifalarini amalga oshirishi lozim:

- turli janr va mavzulardagi adabiy ertaklarni – ertaklar, she'riy folklorning kichik shakllarini tinglash, ularning mazmuniga emotsional munosabat bildirish va syujetning rivojlanishini kuzatib borish qobiliyatlarini rivojlantirish;

- bolalarni ayrim ertaklar va ularning aynan bir xil qahramonlar bilan birlashtirilgan sikllari bilan tanishtirish;

- o'qituvchi bilan birgalikda tanish ertaklarni hikoya qilish, ularni to'liq yoki qisman sahnalashtirishga jalb qilish;

- bolalar so'z ijodkorligi, she'riy matnlarning o'yinli va yumoristik shakllari uchun qulay sharoit yaratish;

- bolalarning o'yin, tasvirlash faoliyatlarini badiiy obrazlar bilan boyitish.

Bolaning badiiy adabiyot bilan o'zaro hamkorligi uning estetik, bilish, ijtimoiy va nutqiy rivojlanish imkoniyatlarini amalga oshirish imkonini beradi. Biroq shu bilan birga faoliyatning estetik xususiyatlari buzilmasligi lozim, bolalarning imkoniyatlari esa sxematizm va taqlidchilikdan iborat bo'lib qolmasligi kerak. Ushbu maqsadda pedagog quyidagi qator usullardan foydalanishi lozim: bolalarning diqqat e'tiborini alohida adabiy ertakning badiiy qimmatiga – folklorning obrazli ifodaliligiga, hikoyada syujetning kutilmagan rivojiga qaratish. Bolaning adabiy ertakni yoki o'zi to'qigan ertagini ijro etishi (guruhda qayta hikoya qilish, yakka tartibda ifodali o'qish va kattalar bilan dialogda o'qish) uchun emotsional boyitilgan ijro muhitini yaratish lozim. Biroq, badiiy ertak faqat so'z bilan aytilmasdan, balki uning ayrim yorqin jixatlari bolalar va pedagoglarning birgalikdagi harakatlari natijasida sahnalashtirilishi, unga musiqiy ishlov berilishi, harakatlar, suratlar, konstruktiv modellar bilan ko'rsatilishi mumkin.

Shuningdek, obrazga kutilmagan va qarama-qarshi yo'nalish beruvchi alohida so'zlar va jaranglashlar bilan o'tkaziladigan o'yinlar ham muhimdir. Pedagog bolalarning qofiya bilan o'yinlari, so'z ijodkorligi, she'rni davom ettirish va she'r to'qish, tashbehtar va taqqoslashlar o'ylab topishlariga asoslangan o'yinli hamda kulgili vaziyatlarini rag'batlantiradi. Masalan, adabiy

ertaklar personajlarining xarakterini aks ettiruvchi yangi ifodali ismlarni, yoki ertakda obrazli tasvirlangan narsalar va hodisalar uchun yangi nomlarni o'ylab topishadi. Pedagog bolalarning nisbatan yirik xajmdagi adabiy ertaklar syujetlari asosida o'yinli "xayolotdagi olamni" yaratishlariga ko'maklashishi lozim. Masalan, yirik hajmdagi adabiy ertak (mualliflik ertagi) bilan tanishtirishda u guruhga ushbu ertakning "xayolotdagi olamini" olib kirishi va bir necha kun mobaynida (sayrda, o'yinlarda) bolalar bilan birgalikda uning ichida "yashashi" mumkin.

Estetik qabul qilish va ijodkorlikni rivojlantirish uchun ertaklarni mavzusiga qarab guruhlashdan foydalanish samaralidir. Bu bolalarga turli ertaklarda tasvirlangan obrazning variativligini va uning bir ertak doirasida rivojlanishini; aynan bir xil mavzu yo'nalishlarini ko'rib chiqishda kontekstlarni o'zgartirish, obrazli ifodalar turli shakllarining o'zaro bog'liqligini (so'z, harakat, tovush, tasvir) namoyish qilish imkonini beradi.

Shuningdek, quyidagi shakllar ham mumkin: pedagog bolalarga ertaklar guruhini tanishtiradi va ular asosida ishni bolalarning ochiq turdagi universal bilish muammolarining (tirik va o'lik, yaxshilik va yomonlik, go'zallik va xunuklik muammolari) turlicha obrazli yechimlarini qidirishlariga yo'naltiradi. Ravshanki, qidiruv jarayonida muammolarning o'zlari umumlashtirilgan ko'rinishda shakllanmaydi, balki faqat turli adabiy obrazlar va syujetlar, shuningdek bolalarning o'zlari tomonidan vujudga keltiriladigan vaziyatlarning birgalikdagi muhokamasi ro'y beradi, xolos.

Ilm-fan va texnika sohalarida yaratilgan kashfiyotlar, shuningdek, mazkur kashfiyotlar ta'sirida ishlab chiqarishning shiddatli rivoji o'z navbatida ijtimoiy munosabatlarning mazmunan boyib borishini ta'minlaydi. Ijtimoiy munosabatlar mazmunining texnik vositalar va ularning xizmatidan foydalanish borasidagi qarashlar bilan boyitilishi, nomoddiy (xususan, yosh avlodni tarbiyalash) sohalarida ham ularning imkoniyatlariga tayanib ish ko'rish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Ushbu zaruriyat tufayli o'tgan asrning 20-yillaridan boshlab ta'lim

jarayonida ayrim texnik asboblardan foydalanilgan bo'lsa, 50-yillarda texnik vositalardan foydalangan holda o'quv faoliyatini tashkil etish maqsadida amaliy harakatlar olib borildi. Bu kabi harakatlar "zamonaviy usullar", "ta'lim texnologiyalari" tushunchalarining shakllanishiga olib keldi.

Bugun insonga xos hayot kechirish uchun qachondir egallab olingan bilim, ko'nikma va malakalar endi yetarli bo'lmaydi. Odam muttasil ravishda takomillashib, aqliy va ma'naviy jihatdan kamolot kasb etib borsagina hayot bilan birga qadam tashlay oladi. Buning uchun u o'z ustida ishlaydigan, tinimsiz ravishda mustaqil o'qib, izlanadigan bo'lishi kerak. Shu sababli bolalarni maktab davridayoq mustaqil fikrlaydigan, muammolarga yechim topadigan qilib tarbiyalash lozim. Shuning uchun ham XX asrning oltmishinchi yillaridan e'tiboran dunyo miqyosida o'qitish jarayonini tamomila yangicha tamoyillar asosida tashkil etish zaruriyati paydo bo'ldi.

Sho'ro davrida metodist olim va o'qituvchilar maktabda xalq og'zaki ijodini o'rganish metodikasiga oid anchagina ishlar yaratdilar. Unda o'qituvchining ma'ruzasi matnni tahlil qilishning asosiy metodlaridan biri ekanligi, o'qituvchi, albatta, asar syujetini to'liq so'zlab berishi zarurligi alohida uqtirilgan. O'qituvchi darslikda berilgan asarlarni to'liq so'zlab bergach, o'quvchilar asar matnining nasriy bayonini uyda o'qib kelishlari, so'ng darslikda berilgan savollar asosida suhbatga tayyorgarlik ko'rishlari ta'kidlangan. Ko'rinib turibdiki, bu yondashuv o'sha davr metodikasi holatidan kelib chiqqan bo'lib, metodika ilmi va o'qitish amaliyotining bugungi talablariga zid keladigan anchagina jihatlariga ega.

Agar yuqoridagi fikrlarga amal qilingudek bo'lsa, o'quvchilar asarlarning matni bilan bevosita tanishmaydilar, uning buyuk badiiy tarovatidan bahrasiz qoladilar va faqat asarlardagi g'oya hamda qarashlarnigina o'zlashtiradilarki, barkamol shaxs tarbiyalashga qaratilgan adabiy ta'lim uchun bu mutlaqo yetarli bo'lmaydi.

Sobiq sovet davri maktab amaliyotida (o'sha davr tadqiqotlari) o'qish kitobidagi asarlarni o'rganish darslariga nazar tashlaganda, tubandagidek bor-yo'g'i ikki-uch mashg'ulot qolipi borligiga guvoh bo'lamiz.

1. O'qituvchining qisqacha kirish so'zi.
2. Ertakni o'qish (O'qituvchi o'qiydi).
3. O'quvchilar uchun tushunishi qiyin bo'lgan so'z va ifodalarga izoh berish.
4. Ertakni o'quvchilarga o'qitish.
5. Matn tiliga yaqinlashtirib qayta hikoya qilish.

Asar o'rganilayotganda oldin o'tilgan mavzu takrorlanadi, ya'ni uy vazifasi tekshiriladi, yozuvchining hayot va ijodi batafsil bayon qilib beriladi, agar biror asardan parcha yodlashga berilgan bo'lsa, o'quvchilar bir-bir turg'izib aytiriladi, yodlamaganlarga tanbeh beriladi. Bu tadbirlarga o'rtacha hajmli bir she'rni tahlil qilishga zo'rg'a ulguradigan 45 daqiqalik mashg'ulotning yarmi sarf etiladi. So'ng yangi mavzuga qo'l urilib, o'qituvchi asarni so'zlab beradi. Keyin o'rganilayotgan asarni avval o'qituvchi, keyin bir necha o'quvchi darslikdan ifodali o'qishga harakat qiladi.

Asarlarni o'rganishda esa yuqorida qayd etilgan qolipdagi kabi uy vazifasi so'ralgach, o'qituvchi syujetni gapirib beradi. Keyin o'zi o'qiydi yoki o'quvchilarga o'qittiradi. Asardagi obrazlarga to'xtalib, ularning yaxshi yoki yomon ishlari muhokama qilinadi. Ko'rinadiki, bu darslar bir qolipda va zerikarli o'tadi.

J.G'.Yo'ldoshevning e'tirof etishicha, "O'quv jarayoniga yangicha qarashning tub mohiyati shundan iboratki, o'qitishda ichki motivatsiyadan (diqqatni tortish, ichki tuyg'u, istak, zaruriyatni shakllantirish) kelib chiqish kerak. O'quv jarayonida asosiy harakatlantiruvchi kuch – o'quvchi uchun ham, o'qituvchi uchun ham ichki motivatsiya bo'lishi kerak. Bunda o'quvchilar bilim olishga intilishi (xuddi benzini bo'lmasa, avtomashina o'rnidan qo'zg'ala olmangani kabi, bilim olmasang, sening hayotdagi o'ring bo'sh, jamiyatga

qo'shila olmaisan...) va bilim olishga ehtiyoj bo'lishi kerak, o'qish maqsadlari ichki ehtiyojga aylanishi kerak"¹⁸. O'quvchi real hayotga kirib borishi hamda unda faol ishtirok etishi uchun bilim, ko'nikma va malakalar bilan birga ilmiy bilish metodlariga ega bo'lishi kerakligini ongli ravishda tushunib yetishi lozim.

Q.Husanboyevaning tadqiqot ishi adabiy ta'limda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish yo'llarini nazariy jihatdan asoslash, ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllantirishda mustaqil fikrlashning o'рни va ahamiyatini belgilashga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir¹⁹. Zero, yangi zamonaviy usullarni ta'lim jarayoniga joriy etishdan ko'zlangan maqsad ham o'quvchilarni mustaqil ta'lim olish va erkin fikrlashga rag'batlantirish, ularda bu boradagi ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iboratdir.

Adabiy ta'lim samaradorligini belgilovchi ko'rsatkichlardan biri – bu o'quvchilarda mustaqil, erkin fikrlash qobiliyatining shakllanganligidir. Q.Husanboyeva tomonidan olib borilgan tadqiqotda o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikma va malakalarni shakllantirishga nisbatan zamonaviy yondashuvning mohiyati yetarli darajada ochib berilgan.

M. Sariboyevaning ilmiy izlanishlari o'quvchilarni ta'limiy haqiqatni topish yo'lida mustaqil izlanish va ko'proq fikrlashga o'rgatish usullari tavsiya etilgani bilan ahamiyatlidir. Unga adabiy ta'limdagi eng og'ir jabha hazrat Alisher Navoiy epik asarlarini o'zlashtirishda interfaol usullarni ishlatish yo'llari tadqiq etilgan²⁰.

Darhaqiqat, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishlariga erishish, muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish asosida ularni fikrlashga, asar mohiyatini chuqur tahlil etishga undash va o'quv materiallarini o'zlashtirishga nisbatan ijodiy yondashuvlarini ta'minlash adabiy ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda

¹⁸Yo'ldoshev J.G'. Yangi pedagogik texnologiya: yo'nalishlari, muammolari, yechimlari //Xalq ta'limi j., 1999. 6, -4-6-b.

¹⁹ Husanboyeva Q. Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ilmiy-metodik asoslari. Ped.fan.dok. ...diss. avtoref. –T.: 2004.

²⁰ M. Sariboyeva. Umumta'lim maktablarida Alisher Navoiy epik asarlarini zamonaviy usullarda o'rgatish. Ped. fan. nom... diss. –T.: 2011. – 163 b.

muhim ahamiyatga ega. Mazkur o'rinda "adabiy ta'lim samaradorligi" hamda "adabiy ta'lim samaradorligini ta'minlovchi zamonaviy usullar" iboralarining mohiyatini ochib berishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Adabiy ta'lim samaradorligi – bu mazkur bilim sohasi bo'yicha Davlat ta'lim standartida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarning minimum darajalarini o'quvchilar tomonidan qat'iy, izchil va puxta o'zlashtirilganligini qayd etuvchi ko'rsatkich. Bizga yaxshi ma'lumki, muayyan faoliyatni amalga oshirishda uning samaradorligi ma'lum omillar vositasida ta'minlanadi. Pedagogik texnologiyalar ana shu maqsad uchun xizmat qiladi.

Adabiy ta'lim samaradorligini ta'minlovchi zamonaviy usullar - bu adabiy ta'lim bo'yicha Davlat ta'lim standartida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarning minimum darajalarini o'quvchilar tomonidan kam jismoniy kuch va vaqt sarflash hisobiga puxta o'zlashtirilishini ta'minlovchi faoliyat mazmuni bo'lib, unda eng maqbul, samarali shakl, metod va vositalar o'z aksini topadi.

Adabiy ta'limni o'qitishda samaradorlikka erishish ushbu jarayonlarni ijodiy va zamonaviy yondashuv asosida tashkil etish hisobiga ta'minlanadi. Mazkur vaziyatlarda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

1. Har bir dars(mashg'ulot)ni metodik jihatdan puxta asoslangan loyihaga muvofiq tashkil etish.

2. Loyihada o'quv materialining yaxlit holda, shuningdek, uni muayyan qismlarga ajratish asosida o'rganish uchun maqbul shakl, metod va vositalarning to'g'ri tanlanishiga erishish.

3. Loyihada o'quvchilarning mustaqil faoliyat yuritishlari, o'quv materialini o'rganishga nisbatan ijodiy yondashuvlarga erishishni ta'minlovchi holatlarning aks etishi.

4. Loyihada maqsadning natijalanishini kafolatlovchi omillarning o'z ifodasini topishi.

5. O'quv materialining mohiyati, janri va uning g'oyasiga tayangan holda unga muvofiq samarali nazorat topshiriqlar (test, og'zaki suhbat, yozma ishlar, bayon, insho va hokazolar)ning belgilanishiga erishish.

Boshlang'ich sinf o'qish darslaridagi asarlarni tahlil qilishda o'quvchilar yosh xususiyatlari, ularning adabiy tayyorgarligini to'g'ri hisobga olish muhim o'rin tutadi. Holbuki, ***“...g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lgan bolalar adabiyotini rivojlantirishga alohida e'tibor berishimiz, mustaqil fikrlaydigan shaxsning shakllanishi, har qanday kitobxonlik, mutolaa madaniyati bolalikdan boshlanishini doimo yodda tutishimiz lozim”***²¹.

Ilmiy manbalarning tahlili asosida shakllangan nazariy qarashlar va o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining natijalariga tayangan holda quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

- umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida xalq og'zaki ijodi namunalarini zamonaviy usullar asosida o'rgatish bugungi talablar darajasida tashkil etilmagan;

- boshlang'ich sinf o'qituvchilari zamonaviy o'qitish usul va vositalarini qo'llab, o'quvchilarda innovatsion texnologiyalarga qiziqish uyg'otadi;

- zamonaviy usullar o'quvchilarni ta'lim jarayonining ishtirokchi va ijrochisiga aylantira olganligi bois ular adabiy ta'lim samaradorligini oshiradi;

- adabiy ta'lim jarayoni zamonaviy usullar asosida tashkil etilganda ushbu usullarga nisbatan o'quvchining shaxsiy fikri, xulosasi, munosabati paydo bo'lishiga, ya'ni ijodiylikka imkoniyat yaratiladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bugun insonga xos hayot kechirish uchun qachondir egallab olingan bilim, ko'nikma va malakalar endi yetarli bo'lmaydi. Odam muttasil ravishda takomillashib, aqliy va ma'naviy jihatdan kamolot kasb etib borsagina hayot bilan birga qadam tashlay oladi. Buning uchun u o'z ustida ishlaydigan, tinimsiz ravishda mustaqil o'qib, izlanadigan bo'lishi kerak. Shu sababli bolalarni maktab davridayoq mustaqil fikrlaydigan,

²¹ Karimov I. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. –T.: “O'zbekiston”, 2009. -40 b.

muammolarga yechim topadigan qilib tarbiyalash lozim. Shuning uchun ham XX asrning oltmishinchi yillaridan e'tiboran dunyo miqyosida o'qitish jarayonini tamomila yangicha tamoyillar asosida tashkil etish zaruriyati paydo bo'ldi.

Demak, o'quvchi egallayotgan bilimi, o'zlashtirayotgan ko'nikma va malakalaridan tashqari, xalq og'zaki ijodi namunalari orqali o'zida insoniy fazilatlarni shakllantirib borsagina barkamol shaxs bo'lib tarbiyalanishi mumkin.

1.2. XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARINI O'QUVCHILARGA ZAMONAVIY USULLARDA O'RGATISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Davlatimiz o'tmish qadriyatlarini qaytadan tiklash, odamlar qalbida madaniy merosimizga keng yo'l ochish siyosatini amalga oshirmoqda. Dunyo ilmi taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan buyuk allomalarimiz nomlari, ulaming kashfiyotlari haqidagi ta'limotlar qatori turli munosabatlar bilan urf-odatlar, rasm-rusumlar, tadbirlar, xalq og'zaki ijodi namunalari har bir o'zbek qalbida milliy g'urur tuyg'usini uyg'otish maqsadini nazarda tutadi.

Xalq og'zaki ijodi badiiy adabiyotning tarkibiy qismidir. "Badiiy" so'zining go'zal, ajoyib ma'nolarga ega bo'lishi lug'atlarda qayd etilgan.

Boshlang'ich sinf o'quv dasturlari oldiga o'quvchilarni yaxshi o'qish sifatlariga ega etishdek murakkab vazifani qo'yadi. Bunday vazifalarni to'laroq amalga oshirishda xalq og'zaki ijodi materiallari katta ahamiyatga ega. O'quvchilar tabiatan maqol, topishmoq va ertaklarni sevadilar, ularni zo'r qiziqish bilan o'qib o'rganadilar. Bundan tashqari xalq og'zaki ijodi qadimdan tarbiya manbai hisoblangan.

Har bir so'z san'ati namunasi, jumladan, xalq og'zaki ijodidagi qo'shiq, ertak, doston va boshqa asarlarda fikriy yangilik bo'lishi lozim. Bu yangilik kichik hayotiy voqeadan tortib murakkab ijtimoiy vaziyatlarini baholash bilan belgilanadi. Inson hayoti davomida sonsiz-sanoqsiz yangiliklarga duch keladi. Katta avlod

vakili tajribasidagi oddiy haqiqatlar yoshlar uchun yangilik hisoblanaveradi. Shuning uchun xalq og'zaki ijodi asarlarini eshitganimizda, ular bilan kitobdagi matn vositasida tanishganimizda juda ko'p yangi-yangi fikrlarga duch kelamiz. Masalan, "Qozonga yaqinlashsang qorasi yuqar, yomonga yaqinlashsang balosi" maqolidagi asosiy fikr yomonga yaqinlashgan odamning taqdirida noxush voqealar ko'payishidan ogohlantirishdir. Lekin aslini olganda maqolning birinchi qismida ham ehtiyotlik belgisi aniq ko'rinib turibdi. Ya'ni xalq yosh va hali turmush tajribasiga ega bo'lmagan farzandga qozonga yaqinlashayotganda qora qurum tegishidan ehtiyot bo'lishni tavsiya qilmoqda. Qo'shimcha ravishda aytish mumkinki, har bir inson muayyan vaziyatda ish qilar va qarorga kelar ekan, ehtiyot choralarini esidan chiqarnaslik lozimligi uqtirilmoqda. Ayni chog'da, og'zaki ijodimiz asarlari bilan tanishar ekanmiz, millat taqdiriga va ijtimoiy vaziyatlarga bog'liq muhim ahamiyatga ega yangiliklar ifodalanishiga guvoh bo'lamiz. O'zbek maqollari qatorida dunyodagi juda ko'p millatlarda uchraydigan hikmatlar bor. "Zumrad va Qimmat" ertagimizdagi voqealar ko'p xalqlarda deyarli o'zgarishsiz takrorlanadi. Doston, ertak, qo'shiq kabi turli janrlarga mansub asarlar so'zlarini boshqalari bilan almashtirish mumkin emas. Boshqa so'z qo'llanganda, asaming mazmuniga, shakliga, jozibasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan: ertaklar "Bir bor ekan, bir yo'q ekan..." degan so'zlardan boshlanadi. Shu jumlaning o'zida hikoya qilinayotgan voqeaning hayotda ro'y berganiga shubha paydo boiishi tabiiydir. Ertak davomida esa birinchi jumladagi fikr rivojlanadi va tasdiqlanadi. Yoki dostonlarda qayta-qayta quyidagi misralar takrorlanadi:

Dam shu damdir, o'zga damni dam dema,
Boshing omon, davlatingni kam dema.

Bu matndagi soʻzlarni ham boshqalari bilan almashtirsak, misralarning fayzi, shukhi yoʻqoladi. Xalqimiz yaratgan maqollarni tashkil etuvchi soʻzlar xususida esa, umuman, til lol qoladi²².

Psixologiya fanining taʼbiricha, bola tabiatan ertaklarning qahramoni boʻlishni, hech qursa, ertakda nomi tilga olinishini juda-juda xush koʻradi. Ertak aytish jarayonida asardagi geografik nomlarni bolalarga tanish joylar bilan oʻzgartirish ularning diqqatini oʻziga tortadi. Bolaning qiziqish va eʼtiborini kuchaytiradi, tanish nom bolaning ruhiy shakllanishida oʻz taʼsirini koʻrsatadi. Harakatga kelgan mana shu tanish narsa yoki hodisa inson oʻqiyotganda, biror kino yoki sahna asarini koʻrayotganda ham maʼlum vazifani bajaradi. Bu jarayonda «men»ning manfaatlarini koʻzda tutish, unda farzandlik burchi, vatan tuygʻusi, qarzdorlik hissi, insoniy fazilatlarni shakllantirish birinchi oʻrinda turishi, shularga urgʻu berilishi kerak. Bolalikda kattalar shaxsiyatidagi insoniy sifat-fazilatlar hech qanday zoʻriqishlarsiz ular tomonidan aytilayotgan hikoya yoki ertakning ifoda ohangi, aytuvchining munosabatlardan tabiiy ravishda bola ruhiyatiga oʻtadi, oʻrnashadi. Bu jarayonga hech qanday tashqi kuch aralashmaydi. Maktab adabiy taʼlimi ham mana shu tabiiylikka hamohang ravishda oqilona tashkil etilishi, oʻqituvchi ham oʻzidagi otalik, onalik mehri, insonlik sifatleri oʻz xatti-harakatida aks etib turishini unutmasligi kerak. Bolalar kattalardagi har bir narsa-hodisaga, oʻzlariga munosabatdagi xususiyatni, samimiyligni, rostlikni ichki bir tuygʻu bilan ilgʻab oladilar. Shunga tayanib, oʻz xatti-harakatlari bilan atrofdagilarga munosabat bildiradilar.

Maʼlumki, insonning tasavvuri, xayolot olami uning hayotdan olgan manbalari asosida shakllanadi. Taʼlim-tarbiya jarayonida ham bola oʻz tasavvurini toʻyintira olishga erishishi, yaʼni boy tasavvurga ega boʻlishi, uni zarur muammolarni hal etishda ishlata bilishi, bu yoʻlda oʻzini chiniqtirishi, xayol ufqini kengaytirishga erishishi lozim. Oʻqib bilim olish va shaxs sifatida rivojlanish uchun maktabda ham, oilada ham kerakli omillar boʻlishi kerak.

²². O.Madayev. Oʻzbek xalq ogʻzaki . –T.: 2010. 13-b.

L. Tolstoyning fikricha, bolalarda ijodkorlikni o'stirish uchun ularni ijodga undovchi hayotiy omil va kerakli material bilan ta'minlash zarur. Bolaga erkinlik berish, **“uni o'qitishni bas qilish”** shaxs shakllantirishda juda katta samara beradi. “Agar mening bolalarga berganlarimni usul deb atash mumkin bo'lsa,- degan ekan L. Tolstoy,- u usullar quyidagilardan iborat: a) ularga eng katta va xilma-xil mavzularni taklif etish va tanlash ixtiyorini berish. Bu mavzular bolalar uchun maxsus tanlangan bo'lmay, o'qituvchining o'zi uchun o'ta jiddiy va qiziq bo'lishi kerak; b) ularga bolalarning insholarini o'qishga berish va namuna sifatida faqat bolalarning ishlarini berish; v) eng muhimi, bolalarning ishlarini tekshirayotganda daftarining ahvoliga, xatining sifatiga, xatolariga va ayniqsa, uning ifoda tarziga, aytish joiz bo'lsa, uslubiga hech qachon tanbeh bermaslik kerak²³”. Bu yo'ldan yozma ish olish jarayonida foydalanish kerak mumkin.

O'quvchining mehnati oson bo'lishi kerak emasligini, aksincha, bilim olish, ko'nikma shakllantirish, malaka hosil qilish, mehnatga qiziqtirish, o'zida muayyan axloqiy sifatlarni qaror topdirishga odatlantirish zarurligi, bu esa qiyinchiliksiz amalga oshmasligi taniqli pedagoglar tomonidan ko'p bor ta'kidlangan. Faqat o'sha qiyinchilikning nozik chegarasini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Toki, bu mehnat o'quvchining yosh xususiyatlariga mos, o'zlashtiriladigan bo'lishi, uni bajarish huzur va zavq bag'ishlashi lozim. Insonga nisbatan bo'lgan talabchanlik uni kamolot sari yetaklashi va o'zini rivojlantirishga undashi kerak. Bolani tarbiyalash, o'qitish emas, uning o'zini o'zi tarbiyalaydigan vaziyatga solish muhim. Buning uchun maktabdagi ta'lim-tarbiya jarayoni ham, bu jarayonni amalga oshiradigan didaktik ashyo bo'lmish darsliklar ham boladan oldinda yurishi, ular sinfdagi eng ilg'or bolani ham yetaklaydigan bo'lishi kerak.

Bolalarda o'z fikrini ifodalash ko'nikmasini shakllantirishga boshlang'ich sinflardan e'tibor berish lozim. Ta'lim tizimidagi eng to'g'ri yo'l odamni muqarrar ichki kurashga tayyorlashdir. Bolani yoshlikdan kurashlarga tayyorlash uni chinakam shaxs qilib tarbiyalash demakdir.

²³ Стоюнин В. Я. Избранные педагогические сочинения. – М.: «Педагогика», 1991.С. 361.

Ma'lumki, har qanday jamiyatda chinakam insonlarga kuchli ehtiyoj bo'ladi. Chinakam insonlar esa tabiatan aql va hissiyotga ehtiyojmand kishilar. Tarbiyalovchilar qo'l ostilaridagi bolalarga berilgan aql va tuyg'uni ilg'ay olishlari va ta'lim-tarbiya asosida ularni rivojlantirishlari lozim. Ular bolalarni bo'ysunuvchilarga aylantirib qo'ymasliklari kerak.

O'quvchilar ijodiy ishining yaratuvchilik jihatida shundaki, ijodkorlik faoliyatida bolalar o'rganilayotgan xalq og'zaki ijodi namunalari mazmuniga mustaqil ravishda chuqurroq kirib boradilar, tahlil qilishda, xulosalar chiqarishda erkin bo'ladilar. Ularning bilim olishdagi yaratuvchanligi va ijodkorligi ta'limda bir-birini rad etmaydi, faqat har xil darajada aks etadi. O'quvchilarning bilim olishdagi yaratuvchanlik xarakteri milliy ta'lim tizimiga endi kirib kelayotgan hodisa. O'quvchilar tomonidan bilimlarning ijodiy va yaratuvchanlik shaklda o'zlashtirilishi ta'lim samaradorligi uchun ham, tafakkurining mustaqil bo'lishi uchun ham muhim.


O'rgatish usullari ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining xarakterini, o'qish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi. O'qitish usullari o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish hamda o'quvchilar tomonidan nazarda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish faoliyatida qo'llanadigan yo'llarni o'z ichiga oladi. Demak, o'rgatish usullari pedagogik jarayon ishtirokchilarining o'zaro birgalikdagi faoliyatini ko'zda tutadi. Dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining turi, usuli o'rgatiladigan ma'lumotning xarakteriga qarab belgilanadi. Aynan mana shu holat ta'lim jarayonida muayyan maqsadni amalga oshirishga qaratilgan yangi-yangi usullarni keltirib chiqaradi.

Agar adabiy ta'lim bir tizim, deb qaraladigan bo'lsa, uni tashkil etuvchi unsurlar quyidagilardir: ta'lim maqsadi, kutilayotgan natijalar, ta'lim beruvchi-o'qituvchi va bilim oluvchi-o'quvchi, ta'lim tamoyillari, ta'lim mazmuni, metodi, shakli, vositalari, nazorat va baholash mexanizmlari. Adabiy ta'lim zamonaviy usullar asosida tashkil etilganda, uning tarkibiy tuzilmasidan birortasi e'tibordan chetda qolsa

yoki noto'g'ri tanlangan bo'lsa, tizim ishlamaydi, bu esa ta'lim jarayoni oldiga qo'yilgan maqsadga erishmaslik xavfini yuzaga keltiradi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda rivojlanayotgan dunyo ta'limi fazosiga qo'shilish imkoniyatini beradigan yangi ta'lim tizimi tarkib topmoqda. Milliy pedagogika fani erkin shaxsni tarbiyalash qonuniyatlari, shakl va metodlari, mazmun va tamoyillarini o'rganadi. Zamonaviy ta'lim usullari qo'llangan o'quv jarayonida ham an'anaviy sinf-dars tizimi saqlanadi. Faqat unda o'rgatishning tashkiliy shakllari, usullari takomillashadi.

Adabiy ta'lim jarayonini tashkil etish loyihasi



O'qitish tizimi paydo bo'lib, ta'lim nazariyasi vujudga kelgandan e'tiboran ta'lim beruvchilar tomonidan ta'lim maqsadiga erishishning samarali, qulay usullari izlab kelingan. Ayniqsa, o'tgan asrning 70-yillarida olimlar, amaliyotchi

pedagoglar tomonidan ta'lim jarayonini faollashtirish, bilim berishning optimal usullarini izlab topish maqsadida tadqiqot va tajribalar olib borildi.

Respublikamizda zamonaviy usullarning ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi muammoli ta'limni dolzarb pedagogik masalaga aylantirdi. Jumladan, Q.Husanboyevaning²⁴ tadqiqot ishida asosiy e'tibor adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilar ekan, ushbu maqsadga erishish yo'llaridan biri sifatida darslarda muammoli vaziyatlarni yaratish asosida qo'yilayotgan masalaning yechimini topishga yo'naltirilgan o'quv faoliyatini tashkil etish alohida e'tirof etiladi. Unda muammo yechimini topishga urinish jarayonida turli metod va vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq topiladi.

Muammoli ta'limning asosiy xususiyati — bilim oluvchilarning aqliy faolligini oshirish, uni mustaqil, ilmiy, ijodiy izlanish, o'zi uchun yangi bilim, ko'nikma va malakalarni kashf etishga yo'naltirishdan iboratdir. Hozirgi kunda faol hamda o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan o'quv muhitiga erishish uchun muammoli, hamkorlikdagi, modulli va masofadan turib o'qish kabi ta'lim shakllari eng samarali hisoblanadi. Masalan, muammoli ta'lim o'quvchining mustaqil, ijodiy va faol o'zlashtirishini ta'minlash bilan birga, uni keng qamrovli fikr yuritib, o'zi uchun yangi bilimlarni kashf etishga odatlantiradi. O'quvchi muammoning yechimi ustida izlanish orqali o'zi uchun muhim bo'lgan kashfiyotlarni amalga oshiradi. Ushbu tadqiqiy faoliyat o'quvchida o'z kuch va bilimiga ishonch uyg'otadi. Muammoli ta'limning mohiyati shundaki, u o'quvchini mustaqil, ijodiy, ongli va faol bilim olishga undaydi.

Hozirgi kunda insoniyat o'z taraqqiyoti tarixidagi keskin burilish bosqichlaridan biriga kirdi. Bugungi odam kommunikatsiya inqilobi, to'xtovsiz yopirilib kelayotgan axborotlar to'foni tufayli turmush va tafakkur tarzi ham

²⁴. Husanboyeva Q. Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ilmiy-metodik asoslari. Ped.fan.dok. ...diss. -T.: 2004. -262 b.

boshqa o'zanlarga solib yuborilishi mumkin bo'lgan davrni boshidan kechirmoqda.

Muammoli ta'lim o'qitish jarayonida ijodiy metodlarning qo'llanilishini taqozo etadi. O'quvchilar o'z bilim va ko'nikmalarini turli holatlarda amaliyotga tatbiq etishga o'rganadilar. Masalan, boshlang'ich sinf o'qish darslarida muayyan mavzuga oid bir muammo-topshiriqni bajarish jarayonida o'quvchilarning yakka hamda o'zaro faol ishlashini tashkil qilish quyidagicha olib borilishi mumkin:

1. Muammoli vaziyat hosil qilish (xalq og'zaki ijodi namunalari va uning g'oyasiga oid savollar tashlanadi).

2. G'oyalar (takliflar)ni shakllantirish (savollarga berilayotgan javoblar yozib boriladi).

3. Muammoning yechimi uchun eng maqbul g'oyalarni tanlash va baholashdan (tanlash imkoniyatini o'quvchilarga berish maqsadga muvofiqdir) iborat.

Zamonaviy metodlar ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bitta o'quvchining faolligiga asoslanadi. Bu metodlardan to'g'ri foydalanilganda, bilim olish o'quvchi uchun qiziqarli hayotiy faoliyatga aylanadi. Zamonaviy usullar qo'llanilganda, o'quvchilar o'qitilmaydi, balki ularning o'zlari o'qituvchi bilan birgalikda muayyan yo'nalish va miqdordagi bilimlarni mustaqil o'zlashtirishadi. Bu hol bolalarda erkin fikrlash, mustaqil izlanishga rag'bat paydo qiladi. Bu shaklda uyushtirilgan ta'lim jarayoni qatnashchilari o'quv materialini buyurilganiday emas, balki o'zlari xohlaganiday erkin o'zlashtiradilar. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, interaktiv metodlarning eng asosiy belgilari: o'quvchilarning yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga urinishlari va ta'lim jarayoni qatnashchilarining, albatta, kichik guruhlariga bo'lingan holda ishlashlaridir. O'quv topshiriqlarining alohida bir o'quvchiga emas, balki kichik guruhning barcha a'zolariga berilishi o'quvchilarda jamoa tuyg'usini shakllantiradi va ularning tashabbuskorligini orttiradi.

Bugungi kunda adabiy ta'lim amaliyoti o'qitishning samaradorligini ta'minlovchi "Hamkorlikda ishlash", "Fikriy hujum", "Charxpalak", "Rolli o'yin" kabi bir qancha zamonaviy usullar bilan boyidi.

"Fikriy hujum" usulini samarali qo'llay olgan o'qituvchi o'quvchilarini mavzuga oid muammoli savol, muammoli topshiriq va vaziyatlarning yechimiga osonlik bilan kechishiga erishishi mumkin.

"Charxpalak" metodi mavzu yuzasidan ma'lumotlarni umumlashtirgan holda puxta o'zlashtirishda samarali usul sanaladi. Ushbu usulni qo'llash quyidagicha amalga oshirilishi mumkin:

1. Sinf kichik guruhlariga bo'linadi.
2. Har bir guruhga savollar bo'lib beriladi.
3. Har bir guruhga qog'oz beriladi va guruh a'zolari 4-5 daqiqa mobaynida o'zaro fikrlashib, javobni qog'ozga yozadilar.
4. Belgilangan vaqt o'tgach, o'qituvchining ishorasi bilan mikroguruhlar raqamiga qarab javoblar yozilgan qog'ozni keyingi guruhga uzatadilar.
5. Guruh har bir savolga o'zidan oldingi guruh bergan javobiga qo'shimcha qiladilar.
6. Har bir guruh a'zolari o'zining yozgan javobini izohlab beradi.
7. Har bir guruhning savollarga yozgan javobi boshqa guruhlarining qo'shimcha izohlari berilgan holatda o'ziga qaytib keladi. Savollar yozilgan qog'oz guruhlar orasida aylanib, to'ldirilgan javoblar shaklini oladi.

Ko'pchilik o'qituvchilar interfaol metodlarning asosiy xususiyati ularning qiziqarliligida deb hisoblashadi va bu usullarni qo'llashda shu jihatga ko'proq urg'u berishadi. Chindan ham interfaol usullar o'quv mashg'ulotlarini qiziqarli qiladi. Lekin ta'lim jarayoni uchun qiziqarlilikning o'zi kifoya qilmaydi. Qiziqarlilik interaktiv metodlarning bitta belgisi, xolos. Ta'kidlash kerakki, u asosiy belgi ham emas. Interfaol usullar, ta'limning har qanday ilg'or metodlari kabi kamroq vaqt, kuch va resurs sarflab, ko'proq didaktik samaraga erishishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Interfaol usullar o'qituvchidan boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilim hosil qilishning o'zi bilan kifoyalanib qolmaslikni talab qiladi. Chunki bilim berish ta'lim jarayoni oldidagi maqsadlarning eng birlamchisi, xolos. Amerikalik psixolog Benjamin Blum ishlab chiqqan "o'quv maqsadlarining asosiy tushunchalari taksonomiyasi" (O'MATT)ga ko'ra o'quvchilarning bilish qobiliyati olti bosqichdan iborat bo'ladi. Ushbu taksonomiyaga ko'ra bilim bu jarayondagi eng quyi bosqich hisoblanadi:

baholash

umumlashtirish (sintez)

tahlillash

qo'llash

tushunish

bilim

Bu tasnifga ko'ra bilim turli dalil, qoida, ta'rif kabi axborotlarni eslab qolib, qayta aytib bera olishdan boshqa narsa emas. An'anaviy pedagogik yondashuvda esa bilim har qanday ta'limdan kutiladigan eng so'nggi va yuqori natija sanalardi. Shuning uchun ham bilimli o'quvchi tayyorlash har qanday ta'lim muassasi uchun oliy maqsad hisoblanardi.

Blumning taksonomiyasi bilimning oxirgi maqsad emas, balki mustaqil fikrli, izlanuvchan, tashabbuskor va har qanday ta'limiy va hayotiy muammoga yechim topishga intiladigan shaxs shakllantirish yo'lidagi birinchi vosita ekanini anglatdi. Bilim egallashtan keyin tushunish, ya'ni o'tilganni o'zlashtirish bosqichiga kelinadi. Navbatdagi uchinchi bosqich qo'llash, ya'ni o'rganganlarini standart va yangi vaziyatlarda ishlatishni ko'zda tutadi. Unutmaslik kerakki, taksonomiyadagi izchillik, ya'ni bosqichlar zinapoyasi qat'iy bo'lib, buzilishi mumkin emas. Uning bittasini o'tamay turib, keyingisini egallab bo'lmaydi. Shu sababli tahlillash,

umumlashtirish, baholash bosqichlariga etish uchun undan oldingilari to'la bosib o'tilishi lozim. Quyida Blum taksonomiyasini o'qitish amaliyotida qo'llash yo'li chizma ko'rinishi beriladi.

Boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" darsligida quyidagi tarbiyaviy ahamiyatga ega ertaklar mavjud.

1-sinf "Sher va sichqon", "Aql va boylik", "Hakka va uning bolalari"

2-sinf "Uch o'g'il", "Tuya, fil va olmaxon" "Kenja o'g'il"

3-sinf "Alpomishning bolaligi", "Halollik", "Donishmand yigit"

4-sinf "Eng ulug' fazilat", "Chaqimchiga mukofot", "Ilm afzal"

4-sinf "O'qish kitobi" darsligida "Xalq og'ziki ijodi namunalari"²⁵ ga keng o'rin berilgan bo'lib, "Ertaklar mamlakatida" bo'limining "Ilm afzal" ertagini o'quvchilar bilan quyida Blum taksonomiyasini o'qitish amaliyotida qo'llash yo'li chizma ko'rinishi beriladi.

"Ilm afzal" ertagini o'zlashtirish bo'yicha blum taksonomiyasini qo'llash
namunasi

1- chizma

Taksonomiya bosqichlari	Savol va topshiriq namunalari
Bilim	Ertak nomini <i>izohlang</i> . Ertakning bosh qahramonlarini <i>sanang</i> . Ertakda tasvirlangan voqealarni <i>bayon eting</i> .
Tushunish	Ertak shunday tugallanganligi sababini <i>sharhlang</i> . Chol (qariya) timsolining ertak syujetidagi o'rnini <i>tushuntiring</i> . "Umringni uzoq qilsin, baxtimdan o'rgilayki, senday farzandim bor. Lekin akalaringdan kuydim. Ularning mehnat qilishga bo'yni yor bermaydi, o'qib, ilm olib, odam bo'linglar desam, gapimga quloq solishmaydi" tasvirini <i>tushuntiring</i> . Shundan keyin nima bo'lishini <i>chamalang</i> . Bu tasvir nimani anglatishini o'z so'zlaringiz bilan <i>ayting</i> . Ertakning qisqacha mazmunini <i>bayon qiling</i> .
	Ertak voqealarini o'zingizga <i>nisbat berib ko'ring</i> .

²⁵ O'qish kitobi. 4-sinf: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik / S. Matchonov [va boshq.]. - Qayta ishlangan va to'ldirilgan oltinchi nashr. - Toshkent.: «Yangiyo'l poligraf servis», 2017. 44- b.*****

<i>Qo'llash</i>	Cholning savoliga o'g'illarining bergan javobini solishtiring. Uchinchi o'g'il bilan <i>suhbatlashib ko'ring</i> .
<i>Tahlil (analiz)</i>	Sakkiz o'g'ilning xatti-harakatlari sababini <i>izohlang</i> . O'g'illarning nega shunday yo'l tutganligini <i>sharhlang</i> . Qiz va o'g'illarning ilmga munosabatini o'zaro solishtiring. Timsollarning tabiati bilan ularning xatti-harakatlarini <i>qiyoslang</i> . Ilmning afzalligi cholning farzandlariga qanday ta'sir qilganini <i>tushuntiring</i> .
<i>Umumlashtirish (sintez)</i>	Ertak tugallanishini <i>o'zgartiring</i> . O'zingizni qahramonlarning <i>o'rniga qo'yib ko'ring</i> . Ertak mavzusi bo'yicha <i>she'r to'qing</i> .
<i>Baholash</i>	Ertak yakunini <i>baholang</i> . Ertak qahramonlarini <i>oqlang yoki qoralang</i> . Ertak xotimasi hayotiy yoki aksinchaligini <i>isbotlang</i> .

Lug'aviy ma'nosiga ko'ra "taksonomiya" tushunchasi "tartib bilan joylashtirish qonuni" ma'nosini anglatadi. Ob'ektlarni ularning o'zaro bog'liqligiga asoslangan holda murakkablashib boradigan darajalar ketma-ketligi (ierarxik tarz)da joylashtirgan holda turkumlashtirish, tizimlashtirish "taksonomiya" deb ataladi. Pedagogik taksonomiya – pedagogik jarayonning o'zaro bog'liq va xossasiga ko'ra ko'p bosqichli (ierarxik) tuzilishga ega ob'ektlarini tavsiflash, tartibga solish va tizimlashtirish nazariyasi. B.Blum rahbarligida 1956 yilda AQShda "Pedagogik taksonomiya" g'oyalari e'lon qilindi. XX asrning 60-yillarida D.Kratvol va boshqalar tomonidan pedagogik maqsadlarni ifodalovchi taksonomiyaning navbatdagi g'oyalari shakllantirildi.

Alohida ta'kidlash joizki, zamonaviy usullarni an'anaviy ta'lim metodlariga mutlaqo qarshi qo'yib bo'lmaydi. Ular bir-birlarini inkor etadigan, biri boshqasiga halaqit beradigan emas, balki bir-birini to'ldiradigan ta'lim usullaridir. O'qitish jarayonida yo an'anaviy, yoxud interaktiv metoddan birini tanlash kerak qabilida yondashish ma'rifiy jaholatdan boshqa narsa emas. Ta'lim metodlari son-sanoqsiz va ularning har biri o'zi qo'llanilayotgan vaziyat uchun betakror ahamiyatga

egadir. O'qitish jarayonida qo'llaniladigan biror metodni hamisha samara keltiradigan universal usul deb aytish metodika ilmi va amaliyotidan bexabarlikdir. Ta'limning an'anaviy metodlarini interaktiv usullar bilan bir dars ichida ham birgalikda ishlatish mumkin. Ularni bir-biriga qarshi qo'yish pedagogik mantiqqa tamomila ziddir.

Xulosa qilib aytganda, Boshlang'ich sinf bo'yicha o'qish va o'qitishni interaktiv metodlar asosida yo'lga qo'yish milliy ta'lim jarayonini yangi bosqichga ko'taradi, o'quvchilarning bilimlarni mustaqil o'zlashtirib, ularni ko'nikma va malakalar holiga keltirishni tezlashtiradi. Eng muhimi, zamonaviy usullar o'quvchilarning ma'naviyati shakllanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadiki, bu millat yoshlari shaxsiyatining barkamolligiga xizmat qiladi.

Demak, keyingi vaqtda keng tarqalayotgan zamonaviy ta'lim usullari o'quvchilarning mustaqil o'qishlari va erkin fikrlashlarini ta'minlashda katta samara keltiradi.

Birinchi bob bo'yicha xulosalar

Adabiyotlar tahlili va adabiy ta'lim amaliyotini kuzatish quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

1. Xalq og'zaki ijodi namunalarini zamonaviy usullar orqali o'rgatish o'quvchilarga asarning asl badiiy qimmatini to'laroq anglash, ulardagi obrazlarga tirik timsol sifatida yondashish, timsollar mohiyatini teranroq tushunish imkonini beradi.

2. Zamonaviy usullar o'quvchilarni faollashtiradi, xalq og'zaki ijodi namunalarini o'zlari mustaqil o'zlashtirishga kirishadilar, o'quvchilar o'zaro bahs-munozara asnosida xalq og'zaki ijodi namunalarining mohiyatini teranroq anglaydilar.

3. Blumning taksonomiyasi bilimning oxirgi maqsad emas, balki mustaqil fikrli, izlanuvchan, tashabbuskor va har qanday ta'limiy va hayotiy muammoga

yechim topishga intiladigan shaxs shakllantirish yo'lidagi birinchi vosita ekanini anglatdi.

4. Alohida ta'kidlash joizki, zamonaviy usullarni an'anaviy ta'lim metodlariga mutlaqo qarshi qo'yib bo'lmaydi. Ular bir-birlarini inkor etadigan, biri boshqasiga halaqit beradigan emas, balki bir-birini to'ldiradigan ta'lim usullaridir.

5. Ko'p yillik tajribaga ega o'qituvchilarning ko'pchiligi zamonaviy o'qitish usullarini qabul qilishga tayyor emaslar hamda an'anaviy ta'lim usullarini yagona maqbul usullar deb hisoblaydilar.


II BOB. XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARINI ZAMONAVIY USULLARDA O'QITISHNING SAMARADORLIGI

2.1. Epik turdagi folklor asarlarini o'qitishda zamonaviy yondashuv

Ta'lim metodlari – metod grekcha “metodos” so'zidan olingan bo'lib, izlanish yoki bilish yo'li, nazariya, yo'l-yo'riq degan ma'nolarni bildiradi.

Ta'lim metodi – o'qituvchilarning o'quvchilar bilan muntazam qo'llaydigan, o'quvchilarga o'z aqliy qobiliyatlarini va qiziqishlarini rivojlantirish, bilim va ko'nikmalarni egallash hamda ulardan amalda foydalanish imkonini beruvchi ish usuli hisoblanadi.

Uslub – biror narsa, hodisa, jarayonni o'rganish yoki amalga oshirish uchun qo'llash lozim bo'lgan usullar majmuasidir.



I.Y.Lerner va M.N.Skatkin o'qitish metodlarlarini quyidagilarga ajratadilar:

- tushuntirish – rasmlar metodi;
- reproduktiv metod;
- muammoli bayon qilish metodi;
- qisman izlanish metodi;
- tadqiqot metodi.

S.I.Petrovskiy va Y.Y.Golant tasnifi faol va passiv metodlarga bo'linadi. Agar o'quvchi ishlasa, faol metodlar hisoblanadi. Ularga laboratoriya metodi, kitob bilan ishlashni misol qilishimiz mumkin.

Agar o'quvchi ishlamasdan faqat tinglasa, bu passiv metodlar hisoblanib, quyidagilarni keltirishimiz mumkin: hikoya, ma'ruza, ekskursiya, namoyish qilish kabi metodlarni aytishimiz mumkin.

Xalq og'zaki ijodi badiiy adabiyotning eng qadimgi shaklidir. Negaki, badiiy asarlar dastlab og'zaki shaklda paydo bo'lgan, og'izdan og'izga ko'chib yurgan. Hech qanday yordamchi vositalarsiz xalq xotirasi tufayli davrlar osha avlodlarga yetib kelgan. O'g'izdan og'izga o'tish jarayonida xalq dostonlarining obrazlari, obrazlar tizimi, syujeti, badiiy vositalari, tili va kompozitsiyasi boyib bordi.

O'qish fani boshlang'ich sinf o'quvchilarining dunyoqarashini shakllantirish, uni yuksak fazilatga ega inson bo'lib yetishishidagi roli va ahamiyati katta ekanligi hech kimda shubha tug'dirmaydigan haqiqatdir. Bu borada taniqli metodist-olim, professor Boqijon To'xliyevning tubandagi fikrini keltirish o'rinlidir: "Badiiy adabiyotning insonning ruhiy dunyosini, ichki olamini boyitishda, uning inson sifatida shakllanishidagi ahamiyati kattadir. Ko'plab buyuk insonlarni eslasak, o'zlari erishgan muvaffaqiyatlar zahirida badiiy adabiyotning o'rni alohidaligini aniq ta'kidlaydilar", - deydi olim.

Darsliklarda o'quvchilar sevib o'qiydigan xalq og'zaki ijodi asarlariga ham keng o'rin berilgan. Xalq tomonidan yaratilgan og'zaki badiiy adabiyotga folklor deyiladi. "Folklor" asli inglizcha so'z bo'lib, "Folk"-xalq, "Lore"-donolik so'zlaridan yasalgan bo'lib, "Xalq donoligi", "Xalq donishmandligi" ma'nolarini anglatadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari eng avvalo ertaklar bilan tanishadilar Ertak atamasi Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida uchraydi va biror voqeani og'zaki hikoya qilish ma'nosini bildiradi.

Ertak xalq og'zaki ijodining eng qadimiy, ommaviy turlaridan biridir.

Ertakning paydo bo'lishida qadimiy urf-odat, marosimlar, tabiat hodisalari, jonivorlar muhim o'rin tutgan.

Hayot haqiqat bilan bog'liq bo'lib, xayoliy va hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan didaktik g'oya tashuvchi og'zaki hikoyalar ertak deyiladi. Ertakning ba'zi bir viloyatlarda boshqacha atamasi ham uchraydi. Masalan, Surxondaryo, Samarqand, Farg'onada — matal, Buxoro atrofidagi ba'zi qishloqlarda - ushuk, Xorazmda - varsaki, Toshkent shahri va uning atrofida cho'pchak atamasi ham ishlatiladi.

Epik turdagi asarlarda, ayniqsa, ertaklarda xayoliy uydirmalar asosiy o'rinni egallaydi. Ular o'ziga xos qurilishi bilan ham ajralib turadi. Ertak kirish qismi, voqealar rivoji, tugallanmadan tashkil topadi. Ba'zi ertaklar «Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir podshoh (yoki cho'pon) bo'lgan ekan», «Sizga bog' bo'lsin, bizga hayot» kabi qisqagina boshlamalar bilan boshlansa, ba'zi boshlamalar ancha uzun bo'ladi. Ertaklar mavzu jihatidan hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli ertaklar, hayotiy-maishiy ertaklar, hajviy ertaklar kabi turlari bor. Bu ertaklar orasida hayvonlar haqidagi ertaklar ham o'z o'rniga ega.

Hayvonlar haqidagi ertaklar barcha qiziqib tinglaydigan va o'qiydigan fantastik hikoyalardir. Ulardagi asosiy mazmun majoziy tarzda tasvirlanadi, asar qahramonlari hayvonlar bo'lsa-da, voqealar odamlar turmushi kabi kechadi. Hayvonlar haqidagi ertak personajlari - bo'ri, tulki, sher, turli parranda va hasharotlar xuddi odamlarday harakat qiladilar, gapiradilar. Bunday ertaklarda Tulki — ayyorlik va munofiqlik. Ayiq — go'l, laqmalik, Bo'ri — qonxo'rlik, Chumchuq — chaqimchilik ramzi sifatida xayolimizda muhrlanib qolgan.

Xalqimizda birovning salbiy qilig'i, muomalasi hamisha ham yuziga aytilmaydi, aniqrog'i, birovning aybini ko'rsatib tanbeh berishdan ko'ra, uni yomon odatlardan ogoh etish, qaytarish millatimizga xos xususiyatdir. Bema'ni xulqli odamni yaxshi yo'lga boshlash, tarbiyaga muhtoj insonni ezgu ishlarga undashda xuddi shu hayvonlar haqidagi ertaklar, ulardagi majoziy qahramonlar (bo'ri, tulki, eshak, xo'roz kabi) qo'l keladi

O'zbek xalq og'zaki ijodi tarixida ertaklarning badiiy asar darajasiga ko'tarilishi va bugungi kungacha saqlanib qolishida Hamrobibi Umarali qizi, Hasan Xudoyberdi o'g'li, Haydar Baychi o'g'li, Nurali Nurmat o'g'li, Husanboy Rasul o'g'li kabi ertakchi, matalchilarimiz katta xizmat qilganlar. Ular og'zidan yozib olingan o'zbek xalq ertaklarining bebaho namunalari bizga hanuzgacha ma'naviy zavq berib kelyapti.

“Ertaklar — yaxshilikka yetaklar” degan naql bor xalqimizda. Ular shunchaki ko'ngil ochish vositasi, ermak emas, balki ajoyib suhbatdosh, bizni faqat ezgulikka undovchi, zavq-shavq bag'ishlovchi ma'naviy manbadir. Buni quyidagi jadvalda vizual idrok etish mumkin.

2. 1 -jadval.

Ertaklarda ilgari suriladigan g'oyalar

Ijobiy fazilatlarga undash	Salbiy illatlardan qaytarish
Ota –onaga muhabbat	Kibr-u havo
Mehr-oqibat	Adovat
Rostgo'ylik va halollik	Hasad
Go'zallik	Yolg'onchilik
Vatanga muhabbat	Fitna-fasod
Ezgulik va mardlik	Zulm
Mehnatsevarlik	Razolat va xoinlik
Xushmuomalalik va kamtarlik	Dangasalik

Mazkur ertakning o'z o'qilish ohangi bor. O'qituvchi darsga tayyorlanish jarayonida shu ohangni topib olishi lozim. Uning qaysi qismi yo'g'on ovozda, qaysi bo'lagi siniq ohangda, qay o'rinlari mayinlik va qay biri qat'iyat bilan o'qilishi kerakligini oldindan belgilab qo'ygan ma'qul. Asarning o'qilish ohangi va ifodaliligi darsning yarim muvaffaqiyati sanaladi. O'qituvchi mutolaasi bilan o'quvchilar ko'nglini bezovta qila olishi, ularning inon-ixtiyorini to'laligicha

o'ziga qaratib olishi mumkin. Butun diqqat-e'tibori matnga qaratilgan o'quvchi boshqa narsalarga chalg'imagaydi. Bunga ehtiyoj ham qolmaydi. U bor vujudi bilan yoqimli ohangda o'qilayotgan ertakni tinglaydi.

Mutolaa davomida ertak qahramonlarining ruhiyati, fe'l – atvori ifodalangan, ularning tabiyati tasvirlangan lavhalarni, shoirning so'zi o'ynatib yuborgan o'rinlarini o'quvchilarga belgilatib borish mumkin. Asar matni ustida ishlanayotganda ajratib qo'yilgan so'z, insonlarga xos bo'lgan baland sifatlar, chinakam fazilatlarga qaratiladi, munosabati so'raladi. O'quvchilar tomonidan farqlangan, munosobatga tortilgan insoniy fazilarlar ularning shaxsiyatida albatta iz qoldiradi.

O'quvchilarni ma'naviy komillikka undovchi ertaklar juda ko'p.

Masalan, 1-sinf xalq og'zaki ijodiga 12 soat berilgan. Bulardan ertaklar 4 ta va ularga 4 soat, topishmoqlar 37 ta va ularga 2 soat, maqollar 24 ta va ularga 1 soat, masal 1 ta va uni o'qitishga 1 soat, xalq qo'shiqlari 1 ta va uni o'qitishga 1 soat ajratilgan, 2-sinfda ertaklar 7 ta ularga 9 soat, rivoyatlar 2 ta va unga 3 soat, topishmoqlar 49 ta, maqollar 62 ta, tez aytish 46 ta, 3-sinf “O'qish kitobi” darsligidagi xalq og'zaki ijodiga oid ertaklar 3 ta va unga 3 soat, o'yin qo'shiqlari 4 ta va uni o'qitishga 2 soat, rivoyatlar 4 ta va 4 soat, maqol 27 ta bo'lib ularga 1 soat, topishmoqlar 13 ta va 1 soat kiritilgan. Ular orqali o'quvchilarga xalqning orzu – umidlari, do'stlik, ahillik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, halollik, fazilatlari ulug'lanishi, salbiy xislatlarning qoralanishi uqtiriladi.

Ushbu sinfning “O'qish kitobi” darsligida 13 bo'lim bo'lib, “Xalq og'zaki ijodi” bo'limida 6 ta ertak: “Botir mergan va chaqimchi”, “Ahillik- ulug' baxt”, “Halollik”, “Donishmand yigit” va boshqa bo'limlarda yana 2 ta ertak o'rin olgan. Bular: “Barakalla, bo'tam”, “Noahillik oqibati” ertaklaridir.

4-sinfda ertaklar 10 ta bo'lib uni o'qitishga 15 soat, qo'shiqlar 3 ta va 3 soat, topishmoqlarga 5 ta va 1 soat, maqollar 17 ta va unga 1 soat, rivoyatlar 4 ta va uni o'qitishga 4 soat vaqt ajratilgan.

Boshlang'ich sinflarda xalq og'zaki ijodini o'rganishda quyidagicha maqsadlar ko'zda tutiladi:

1. Bolalarni barkamol inson ruhida tarbiyalash, ularda Vatan, jamiyatga muhabbat hissini tarbiyalash.
2. O'quvchilarga xalq og'zaki ijodini materiallari bo'yicha davlat ta'lim standartlari asosida bilim berish.
3. Ularda xalq og'zaki ijodini materiallarini o'qishga havas uyg'otish.
4. O'quvchilarning o'qish, og'zaki nutq malakalarini rivojlantirish.
5. Texnik vositalaridan foydalanishga o'rgatish.

Masalan, darslikda berilgan ertaklarning o'z o'qilish ohangi bor. O'qituvchi darsga tayyorlanish jarayonida shu ohangni topib olishi lozim. Uning qaysi qismi yo'g'on ovozda, qaysi bo'lagi siniq ohangda, qay o'rinlari mayinlik va qay biri qat'iyat bilan o'qilishi kerakligini oldindan belgilab qo'ygan ma'qul. Asarning o'qilish ohangi va ifodaliligi darsning yarim muvaffaqiyati sanaladi. O'qituvchi mutolaasi bilan o'quvchilar ko'nglini bezovta qila olishi, ularning inon-ixtiyorini to'laligicha o'ziga qaratib olishi mumkin. Butun diqqat-e'tibori matnga qaratilgan o'quvchi boshqa narsalarga chalg'amaydi. Bunga ehtiyoj ham qolmaydi. U bor vujudi bilan yoqimli ohangda o'qilayotgan ertakni tinglaydi.

Ertak matnu mazmuni yuzasidan tuzilgan savol-topshiriqlarning har birida o'quvchi diqqatini qaratishi, uning shuuridan o'tishi, ko'ngliga o'rnashib qolishi kerak bo'lgan lavhalar, fikrlar bo'lishi zarur. Asarning badiiy jihatidan go'zal chiqqan o'rinlari savol-topshiriqlarda o'z aksini topishi, ularning har biriga badiiy, axloqiy, ijtimoiy, ma'naviy yuk qo'yilishi, ularning har biri o'quvchini asar matnini shunchaki takrorlashga emas, u haqda o'ylashga, mulohaza yuritishga, tasavvur qilishga yo'naltiradigan tarzda bo'lishi zarur.

Yana shuni alohida ta'kidlash joizki, o'qituvchining savol-topshiriqlariga sinfdagi hamma o'quvchilar javob berishlari shart emas. Ma'lumki, Xudo har kimga har xil qobiliyat va imkoniyat ato qilgan. Bilimlarni har bir o'quvchi o'z imkoniyati doirasida o'zlashtiradi. O'quvchidan imkoniyatidan ortiqcha bilimni


talab qilish uni ta'lim olishdan bezdirib qo'yishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchi savollariga javob berolgan o'quvchilarni rag'batlantirishi, buning uddasidan chiqolmaganlarni esa zo'rlamagani ma'qul. Ular boshqa – o'z imkoniyatlari doirasidagi topshiriqlarni bajarishlari va shu asosda baholanishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar ijodiy ishlarni jon-dili bilan bajaradilar va bundan olam-olam zavq oladilar. Shu zavq, shu yoqimli tuyg'ular uni muhim taraqqiyot sari tortadi. Shu zavqni qayta tuyish ehtiyoji uni rivojlanish sari yetaklaydi. Tarbiyaning mana shu xili bola tabiiy taraqqiyoti bilan hamohang kechadi. Bu jarayonda bolalar tasavvurini, xayolparastligini rag'batlantirish va ularning ijodiga imkoniyat yaratib berish kerak. Bola uchun qiziqarli bo'lgan har qanday faoliyat – foydali. Bola nimani xohlasa, nimaga qiziqsa, shuni qilib ko'rishi kerak. Odatda, yosh bolalar o'z imkoniyatlari doirasidan tashqaridagi ishlar bilan shug'ullanishni xush ko'radilar. Bu ular uchun o'sish, rivojlanishning yagona yo'lidir. Bolalar shuning uchun ham kattalarning ishlariga ko'p aralashadilar, qo'llaridan kelmaydigan narsalarni qilishga chiranadilar. Bu ularning tabiatidagi rivojlanish, o'sish sari tabiiy intilishidir.

Bolalarni ijodga undashning yo'llari juda ko'p. Masalan, 3-sinf "O'qish kitobi" darsligidagi «Ona mehri» va «Alpomishning bolaligi» ertaklarining nomini aytmasdan undagi beshta tanish so'zni aytilish: «ona», «bulbul», «yalmog'iz kampir», «go'dak», «g'or» hamda begona oltinchi so'z «vertolyot» ko'magida yangi ertak tuzish vazifasini topshirish mumkin. Yoki «Boybo'ri», «Boysari», «Hakimbek», «Barchinoy», «Donishmand» va begona so'z «uchar gilam» ko'magida yangi ertak to'qishga undash mumkin. Yoxud tugagan ertakni davom ettirish, qahramonlarning keyingi hayotini tasavvur qilishni talab etish ham o'ta foydali ijod turi hisoblanadi. O'qituvchi yoki ota-ona shunday o'yin-topshiriqlar yordamida shakllanayotgan shaxsning yangi narsaga munosabatini o'rganadilar, uning yangi, begona so'zdan foydalana bilish qobiliyatini shakllantiradilar.

Ertak qahramonlari xarakterini o'zgartirish bilan ham bolalarni yangi ertak to'qishga o'rgatish mumkin.

(1-shakl).



1 - shakl. “O'zimiz ertak to'qimiz” sharti.

Ertaklar, ularni kim to'qishidan qat'i nazar, ko'pincha inson mantiqiy fikri emas, xayolotining mahsuli bo'ladi. Bolalarning esa fantaziyasi o'ta kuchli. Bundan o'qish darslarida unumli foydalana bilish kerak, xolos. Tanish ertak syujeti asosida yangi ertak yaratish, ya'ni o'sha qahramonlar ishtirokida boshqa ertak to'qish, xotira bilan o'ynash – so'zlar va hodisalarni eslash, sinfda hikoyachi rolini bajarish – o'ylab topilgan voqeani aytib berish singari ijodiy ishlarni amalga oshirish mumkin.

Bunday ertak to'qish, hikoyachi o'rnini egallash singari darslar jarayonida o'qituvchi bolalarning ijodini, u qanday bo'lishidan qat'i nazar, yozib borishi kerak. Bola o'qituvchining biror narsani o'zgartirib yozmaganligi, tushirib qoldirmaganini nazorat qiladi. Bu bolada o'z so'zi, yaratig'i e'tiborsiz qolmaganini anglatadi. Bulardan tashqari, boshlang'ich sinf, xususan 3-sinflarda doskaga birini ko'rsatib, birini ko'rsatmay ikki so'z yozish, shu so'zlar asosida ertak tuzishni talab qilish ham mumkin. Masalan, yorug'lik-(qalam), shkaf-(it) so'zlar juftligi ishtirokida

ertak tuzishda bolalar so'zlar juftligidagi ikkinchi so'zning nimaligini bilmaydilar. Shu so'zni qidirib dunyo-dunyo voqealarni aytib yuborganliklarini o'zlari ham sezmay qoladilar. Kimning ertagida mana shu ikki so'z ishtirok etganini o'qituvchi belgilab boradi va o'yinning oxirida buni yuzaga chiqaradi. Bu o'yindan maqsad berkitilgan so'zni topish emas, bolalarni ijodga, uning uchun o'ta foydali bo'lgan mashg'ulotga undashdan iborat.

Yoki "Nima qilarding agar..." (davomi kutilmagan savollar) dunyoda pul bo'lmasa; dunyoni pul bosib ketsa; Sirdaryo boshqa planetaga tushib qolsa; dinozavr bilan to'qnashib qolsang; suv osti shaharchasiga tushib qolsang; parilar mamlakatiga borib qolsang; sehrGAR bo'lib qolsang va hokazo g'ayrioddiy, xayolparastlikka undaydigan savollar bilan ham bolalarni ijodga yo'naltirish mumkin.

Biror ertakning mazmunini o'zgartirib qayta aytish ham ancha jiddiy, ijodiy o'yin. Faqat buning uchun avval zarur vaziyatni yaratib olish kerak. Bolalar tabiatan ertaklar aslining tarafdori bo'ladilar. Ular ertaklarning ayni o'sha birinchi marta eshitgan so'zlar bilan aytilishini istaydilar. O'sha tanish so'zlarni, ular dastlabki holatida eslab qolgan iboralarni, o'sha hayajonni qaytadan tuyish, yana qayta hayratlanish, shodlanish ularga xush yoqadi.

Psixologlarning aytishicha, bola dunyoning o'zi o'zlashtirib olgan holatidan tez-tez o'zgarib turishini xushlamaydi. Uning boshqacha yo'nalishga qo'yilishi, tanish ertakni o'zgacharoq shaklda eshitish bolaga yoqmaydi. U so'zlarni tuzatishga, ertakchiga voqealarning aslini eslatishga urinadi. Bu jarayon bolani o'ylantiradi, bezovta qiladi, ziyraklantiradi, izlantiradi, xushyorlikka undaydi, aqli, xotirasini kuchaytiradi. Bola o'sha avval tuygan lazzat, hayajon, qo'rquvni qayta his qilgisi keladi. O'sha tuyg'ularni qidiradi. Agar u ertakning o'zgargan holati bilan kelishgan taqdirda ham, undagi o'zgarishlar bolani yangi tuyg'ularni his qilishga majbur qiladi. Ular endi ertak bilan emas, o'z-o'zlari bilan o'ynaydilar. O'zlariga javobgarlikni oladilar. Bu hol bolani yomon kuchlardan qo'rqqanlikka, yaxshiliklardan zavqlanishga, go'zallikdan hayratlanishga o'rgatadi. Umuman,

bolaning qahramonlarga munosabatida o'zgarish bo'ladi. Bola haqiqiy hayot bilan o'ylab topilgan hodisalar orasidagi farqni anglab boradi. Bu o'yinning bolani mustaqil mulohaza yuritishga undaydigan ikkinchi jihati shundaki, bola ertakni o'zicha tahlil qilib boradi. Uning dastlabki varianti bilan yangisini taqqoslaydi. Bir vaqtning o'zida ertakning har ikkala shakliga o'ziga yarasha munosabat bildiradi. O'qituvchi o'quvchisi xayolidagi mana shu munosabatni, tahlilni, taqqoslashni so'zga aylantira olishi, yuzaga chiqara bilishi kerak. Uning o'qituvchilik vazifasi mana shuni taqozo qiladi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, ertaklarning qiziqarli syujeti o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodkorlikka, asar qahramonlariga taqlid qilishga, ularning xatti-harakatlariga munosabat bildirishga yo'naltiradi. Agar bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatmoqchi bo'lsak, eng avvalo, ularni ertaklar to'qishga, ijodkorlikka, sarguzashtlar tuzishga undash kerak. Fikrni faqat yangi, avval uchramagan, tortishuvlarga sabab bo'ladigan masalalarga sarflash lozim. J. Rodari takidlaganidek, "Zerikish – fikrning dushmanidir"²⁶.

Topishmoqlar ham xalq og'zaki ijodi namunalarining juda qadimgi turlaridan biri hisoblanadi. Kishilarning aql-zakovati, tafakkuri chuqur, keng va atroflicha mulohaza yuritish, kuzatuvchanlik, o'xshatish hamda taqqoslash kabi fikrlash jarayonlarini rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Topishmoqlar o'xshatish, qiyoslash, ko'chim, ishora, kinoya, qochiriq yo'li bilan so'zlarni ko'chma ma'noda ishlatib, yashiringan narsa, hodisalarning belgilariga ikkinchi bir narsa, hodisalarning belgilarini taqoslash, imo-ishora qilish orqali javobi aniqlagan jumboqlardir. SHuning uchun ham mamlakatimizning ayrim xududlarida topishmoqlarni jumboq deb ataydilar. Ba'zan matal degan so'z ham ishlatiladi. Barcha uchun tushunarli va ma'qul sanalgan topishmoq tushunchasi aynan uning mohiyatini aks ettiradi. Har qanday topishmoqda yashiringan ma'no bo'ladi. Uning javobi tinglovchining bilimi, dunyoqarashi,

²⁶Родари Ж. Грамматика фантазий. Перевод с итальянского Ю. А. Добровольской. – М.: "Прогресс", 1978. С.190.

mantiqiy fikrlashi, hozirjavobligi, oldin egallagan bilimlariga suyanan holda izlab topiladi.

Xalq og'zaki ijodining boshqa janrlari asosan, axloq-odob va tarbiyaning turli yo'nalishlarini amalga oshirishga mo'ljallangan bo'lsa, topishmoqlar ko'proq yoshlarning aqliy kamololtiga ta'sir etishning vositasi bo'lib kelgan. Topishmoqlar qandaydir darajada muammoli ta'limga yaqin turadi. O'quvchining oldiga muammoli savol, vazifa, topshiriq hatto ayrim topishmoqlar muammoli vaziyat yaratish mumkin. Bu fikr keyingi boblarda batafsilroq tahlil etilishi sababli atroflicha to'xtalmadik.

Topishmoqlar qadimda ma'lum vaqtlarda aytilgan. Kattalar yoshlarning aqlini, ziyrakligini, hozirjavobligini sinab ko'rish maqsadida dam olish, oilaviy hordiq chiqarish paytlarida jamoa bo'lib topishmoqlarga javob topishni o'yin sifatida tashkil etganlar. Topishmoqlar bolalar uchun aql-ziyraklik musobaqasi, ko'ngil ochish, o'yin-kulgi vositasi sanalib, yoshlarning tez va to'g'ri fikrlashi, tahlil qilish, umumlashtirish, xulosalar chiqarish kabi tafakkur jarayonlarini shakllantirgan. Hayot va undagi mavjudod haqidagi bilim-tushunchalarini, idrok va tasavvurni, fikr-mulohazalarni kengaytirish uchun zarur ta'lim vositalaridan biri bo'lgani tufayli topishmoqlar soddadan murakkabga, osondan qiyinga, aniqdan noaniqqa, ma'lumdan noma'lumga borish usulida yaratiladi.


Topishmoqlar turli yoshdagi, har xil bilim va tajribaga ega bo'lgan kishilarga mo'ljallangan bo'lib, ayrimlari sodda, javobini osongina topish mumkin bo'lsa, ba'zilar juda murakkab bo'lib, bilimli, tajribali, kuzatuvchan kishilarni ham o'ylantirib qo'yadi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarda topishmoqlardan foydalanish, ularni tanlashga, o'quvchilarga moslarini darsliklarga kiritish maqsadga muvofiqdir. Topishmoq o'quvchi uchun juda sodda ham va o'ta murakkab ham bo'lmasligi kerak.

***Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarga topishmoqlarni o'rgatishdan
ko'zlangan asosiy maqsad va vazifalar***

1. O'quvchi topishmoqlarni o'rganish jarayonida olgan bilimlarini o'zlashtirishga nisbatan ichki ehtiyoj hamda qiziqishning paydo bo'lishga erishish.
2. O'quvchiga topishmoqlar mazmuni tarkibida vatanparvarlikka doir bilimlarni berish.
3. O'quvchilar tomonidan topishmoqlar borasidagi bilimlarni puxta va chuqur o'zlashtirish uchun muayyan shart-sharoitlar yaratish.
4. O'quvchilar tomonidan topishmoqlar borasidagi bilimlarining chuqur o'zlashtirilishiga erishish.
5. Boshlang'ich ta'lim hamda topishmoqlar borasidagi bilimlar asosida o'quvchilarning axloqiy sifatlarini boyitish.

Xalq aql-zakovati natijalari bo'lgan topishmoqlarga bunday yondashuv nazarimizda o'zini oqlamaydi. O'ylaymizki, topishmoqlarni boshlang'ich sinflarda o'qitilishi maxsus va jiddiy tadqiq etilishi va o'quvchilarda topishmoqlar orqali ta'lim-tarbiya berishni shakllantirishga yanada katta e'tibor berishni ma'qul, deb o'ylaymiz.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda topishmoqlar orqali ta'lim-tarbiya berishni shakllantirish tizimi



Topishmoqlar haqidagi xulosamiz shundan ibratki, topishmoqlar ancha aqli, o'ylab, hayotiy kuzatish va tajribalarga suyangen holda ijod qilingan. Hozirgi paytda yaratilayotgan ayrim topishmoqlar juda soddaligi, qisman

bachkanaligi bilan o'quvchilarning qiziqishlarini so'ndirib qo'yishi mumkinligi kuzatilmoqd

Maqollar. Maqollarning aksariyat qismi yoshlarga mo'ljallangan bo'lib, bilim olishga, kasb-hunar egallashga, mehnat qilishga, g'ayrat-shijoatli bo'lishga va yuksak tarbiya natijalarini namoyon qilishga da'vat etadi.

“Fan” nashriyotida 1981-yilda chop etilgan “O'zbek xalq maqollari” to'plami mavzular yo'nalishi bo'yicha qirqta b'limdan iborat bo'lib, shulardan o'ttizdan ortig'i ta'lim va tarbiyaga qaratilgandir. Shu tufayli bo'lsa kerak, boshlang'ich sinflarning darsliklarida xalq og'zaki ijodi namunalaridan eng ko'p uchraydigani maqollardir.

Birinchi sinf “O'qish kitobi”²⁷ darsligining 5-betidan mavzularga mos maqollar berilib borilgan. Misol uchun: “Vatani borning baxti bor”, “Ona yurtning oltin beshiging”, “Ona yurtning omon bo'lsa, rangi ro'ying somon bo'lmas”, 17-sahifasida “Bulbul chamanni sevar, odam –vatanni” kabi maqollar o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytiradi. Kitobning barcha bo'limlarida juda ko'p maqollar mazmunga mos holda berilgan. Darslikning so'nggi qismi xalq og'zaki ijodi, jumladan maqollar bilan yakunlangan. Ikkinchi va to'rtinchi sinflarning “O'qish kitoblari ham xuddi shu tartibda maqollar bilan tizimlangan. Ayrim maqollar barcha sinflarning darsliklarida takroran o'qitishga tavsiya etilgan.

Uchinchi sinfning ”O'qish kitobi”²⁸ (Muhabbat Umarova, Xurshida Hamroqulova, Ra'no Tojiboeva, -Toshkent “O'qituvchi” 2016-y.) darsligi tarkibida jami 27 ta maqollar berilgan bo'lib, bob va mavzularga mos hamda o'quvchilarda ma'lum darajada qiziqish uyg'otishi aniqlandi.

Maqollarni o'qitish orqali yoshlarning milliy va umuminsoniy tarbiyasiga ta'sir etiladi. Maqollar o'zlarida davr va xalq ruhini mujassamlashtirgan bo'ladi. Uzoq o'tmishda yaratilgan maqollar bilan bir qatorda yangidan-yangi maqollar

²⁷ 1-sinf uchun darslik / Muallif-tuzuvchilar: T. G'afforova, E. Shodmonov, G. Eshturdiyeva; Mas'ul muharrir: S. Matchonov. — T.: «Sharq», 2017. — 128 b.

²⁸

ham paydo bo‘lmoqda. Bu bilan xalq so‘z san’ati xazinasi va donishmandligi boyib boradi.

Afsona va rivoyatlar. Afsona va rivoyatlar real tarixiy shaxslarning hayoti, ko‘rsatgan jasoratlari, aql-zakovati, boy ilmiy-ijodiy merosidan kelib chiqqan holda xalq tomonidan biroz bo‘rttirib, yangicha jilva berib, ixcham, ammo ibratomuz voqea va hodisalar bayonidir. Afsona va rivoyatlar asosan xalq tomonidan yaratilsa ham ko‘pchilik hollarda shoir va yozuvchilar, buyuk adiblar o‘zlarining asarlarida ulardan ustalik bilan foydalanib kelganlar. O‘zbek xalq afsona va rivoyatlari ko‘plari hali odamlar yozish, o‘qishni bilmagan davrlarda paydo bo‘lgan. Ular og‘izdan-og‘izga o‘tib, yosh avlodni tarbiyalashda samarali qo‘llanib kelingan. Ma’lum bir qismi shoir va yozuvchilarning asarlarida muhrlangan. Maxmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”, Yusuf xos Hojibning “Qutodg‘u bilig”, Kaykavusning “Qobusnoma”, Ahmad Yassaviyning “Hikmatlar”, Alisher Navoiyning “Hayrat-ul Abror”, Husayn Voiz Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy”, Abdulla Avloniyning “Turkuuiy guliston yoxud axloq” kabi asarlarda katta mahorat bilan afsona va rivoyatlardan foydalanilgan.

Hozirgi vaqtda ham Chingiz Aytmatov, Abdulla Oripov, Barot Boyqobilov, Omon Matjon va yana bir qator adiblarning asarlarida afsona va rivoyatlardan iboratomuz foydalanganlarning guvohi bo‘lamiz.

Tez aytish – xalq og‘zaki ijodi namunasining bu turi ham quyi sinflar darsliklarida berib boriladi. Tez aytish kichik yoshli o‘quvchilarda uchraydigan talaffuz nuqsonlarini yo‘qotishga, aniq va ravon gapirishga o‘rgatishga qaratilgandir. Mazmun jihatdan ilmiy dalillangan, hayotiy voqealarni aks ettirishni maqsad qilib qo‘ymaydigan, ayrim undosh tovushlar bilan boshlanadigan so‘zlarning takrorlanishidan gap tuzilib, tez buzilishi mumkin bo‘lgan jumalardir.

O‘quvchi ko‘p mashq qilish natijasida aniq so‘zlaydigan, tez aytishning mazmunini buzmasdan talaffuz etishga o‘rganadi. O‘quvchi o‘ziga, bilimlariga ishonchi ortadi. Har qanday sharoitda va holatda o‘z fikrini adashmasdan tushunarli qilib bayon etishga o‘rganadi.

Boshlang'ich sinf darsliklarida qisman latifalar, juda oz miqdorda dostonlardan parchalar ham uchraydi.

Biz epik turdagi xalq og'zaki ijodi namunalarini zamonaviy usullarda o'rganish yuzasidan modullarning elektron variantini ishlab chiqdik va tajribada qo'lladik. Tajriba-sinov ishlarida qatnashgan Sirdaryo viloyati Guliston shahri 15- va 16- maktablardagi "Axborot-resurs markaz"larida xalq og'zaki ijodi namunalari yuzasidan tayyorlangan modullarning elektron variantidan foydalanish yo'lga qo'yildi. Ushbu modul tarkibiy tuzilmasining mavzulari xalq og'zaki ijodi namunalari tashkil etgan ertaklar nomlari bilan ataldi. Elektron matnlar mazmuni asosan:

- ertak qahramonlari va ularning xarakter xususiyatlarini ko'rsatish;
- asarning badiiy-g'oyaviy jihatlarini ochish;
- asarni o'rganish bo'yicha qo'shimcha tavsiyalar berishga bag'ishlandi.

Dars jarayonida kompyuterdan to'la foydalanildi. Bunda "Xalq og'zaki ijodi namunalari"ga oid quyidagi mavzularda slaydlar tayyorlandi:

- Epik turdagi folklor asarlarini o'rganishdan maqsad;
- Asarlardagi axloqiy sifatlar;
- Asar g'oyalarini hayotga tatbiq etish dasturi.

Boshlang'ich sinf 3-sinfida epik turdagi folklor asarlarini o'qitishda o'quvchilarning faolligini ta'minlashga qaratilgan interfaol usullardan bir qanchasi maktab amaliyotida sinab ko'rildi va ijobiy natijaga erishildi. Chunonchi, 3-sinfda o'rganilishi mo'ljallangan "Ilmning omonati" ertagini o'tishda o'zimiz qo'llagan zamonaviy ta'lim usuli tavsifini keltiramiz

"Videotopishmoq" metodi

So'nggi yillarda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kompyu-ter, televideniye, radio, nusxa ko'chiruvchi qurilma, slayd, video va audiomagnitofonlar) yordamida ta'lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'qituvchilar oldida ta'lim jarayonida turli axborot vositalaridan

o‘rinli va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi. Video-topishmoq metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

– *o‘quvchi-talabalar o‘rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yori-tishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta video lavha namoyish etiladi;*

– *o‘quvchi-talabalar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilgan-ligini izohlaydilar;*

– *jarayonlarning mohiyatini daftarlariga qayd etadilar;*

– *o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytaradilar.*

“Korusel” (“Charxpalak”) metodi mavzu yuzasidan ma’lumotlarni umumlashtirish va mukammal o‘zlashtirishda samarali usul sanaladi. Ushbu usulni qo‘llash quyidagicha amalga oshirilishi mumkin:

8. Har bir guruhga asosiy savollar bo‘lib beriladi.

9. Har bir guruhga qog‘oz beriladi va guruh a‘zolari 4-5 daqiqa mobaynida o‘zaro fikrlashib, javobni qog‘ozga yozadilar.

10. Belgilangan vaqt o‘tgach, o‘qituvchining ishorasi bilan mikroguruhlar raqamiga qarab javoblar yozilgan qog‘ozni keyingi guruhga uzatadilar.

11. Har bir guruh har bir savolga o‘zidan oldingi guruh yozganiga qo‘shimcha javob yozib chiqadilar.

12. Har bir guruh o‘zining yozgan javobini izohlab beradi.

13. Har bir guruhning savollarga yozgan javobi boshqa guruhlarining qo‘shimcha izohlari berilgan holatda o‘ziga qaytib keladi, go‘yo savol yozilgan, qog‘oz guruhlar orasida aylanib, to‘ldirilgan shaklga keladi..

14. O‘qituvchi yozilgan javoblarga qarab mikroguruh a‘zolarini baholaydi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida bu usuldan 2-sinf o‘qish kitobidagi maqollarni o‘rgatish bo‘yicha foydalanildi.

Ushbu metodning afzalligi shundan iboratki, bunda guruh a‘zolari mavzuni savollarga bo‘lib, to‘liq o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Har bir guruhning fikrlari muhokama qilinishi natijasida guruh a‘zolari o‘z yutuq va

kamchiliklarini aniqlab oladi. Eng muhimi o'quvchilar mustaqil fikrlashga, faollikka yo'naltiriladi va ularda bir-birini baholay olish ko'nikmasi shakllanadi. Shu erda muammoli va hamkorlikdagi ta'lim texnologiyalarining hamoxang tarzidagi uyg'unligi ko'rinadi. Ya'ni o'quvchi ham izlanmoqda, ham o'z fikrini o'rtoqlariga yetkazib, asoslash orqali bilimni o'zlashtirmoqda.

“Fikriy hujum” usuli.

“ Fikriy hujum” usulini qo'llashda quyidagi qoidalarga rioya etilganda, kutilgan samaraga erishilishi mumkin:

- G'oya (fikir)larning miqdori ularning sifatidan muhimroq.
- G'oyalar tug'ilayotgan va aytilayotgan vaqtda ularni tanqid qilish mumkin emas.
- Fikrning yomoni bo'lmaydi! Har qanday fikr qo'llab-quvvatlanishga arziydi.
- Har qanday, hatto, noo'rin fikr ham muhokama etiladi, rivojlantiriladi.
- Hazil-huzul, topqirlik, chechanlik va kutilmagan fantastik g'oyalarni o'rta tashlash rag'batlantiriladi.
- Fikr lo'nda ifodalanishi kerak.
- Ilgari surilgan barcha fikrlar yozib olinadi va tahrir qilinadi.
- Muammoning yechimi shakllantirilayotganda xato fikrlar tashlab yuboriladi.

“Fikriy hujum” interfaol usuli amalga orshiriladigan bosqichlar

2.2-jadval

“ Fikriy hujum” bosqichlari		
1. Tayyorgarlik	2. Hujum	3. Saralash
a) “fikriy hujum” qoidalari tushuntiriladi; b) kichik guruh oldiga o'quv muammosi qo'yiladi. v) taqdimchi (yetakchi) tayinlanadi;	a) fikr (g'oya)lar o'rta tashlanadi; b) barcha fikrlar yozib boriladi; v) g'oyalar tahrir qilinadi;	a) fikrlarni baholash mezonlari tayyorlanadi; b) o'rta tashlangan g'oyalar tasniflanadi va saralanadi; v) fikrlar tanlanadi va tahlil

g) a'zolar o'rtasida vazifa taqsimlanadi.	g) fikrlar umumlashtiriladi.	yo'li bilan rivojlantiriladi; g) muammoning yechimi topiladi.
---	------------------------------	---

Bu usulning diqqatga loyiq jihati shundaki, unda o'quvchilar kichik guruh tarkibida birgalikda ishlashga, yaxshi yoki yomon o'qishidan qat'i nazar, birlarining fikrlarini eshitishga o'rganishadi. Guruh a'zolariga bir xil baho qo'yilishi esa bolalarda jamoa ruhini shakllantiradi.

Ushbu usulda o'qituvchi boshqaruvchi emas, balki yordam beruvchi sifatida ish ko'radi. U o'quvchilar faoliyatini muammoga yo'naltirib turadi, ularning asosiy maqsaddan chalg'ib ketmasliklarini ta'minlaydi. "Fikriy hujum" usulini qo'llashda quyidagi bosqichlarga amal qilish uning kutilgan pedagogik samarani berishini ta'minlaydi:

1. **Tayyorgarlik.** "Fikriy hujum" usulida o'tiladigan mashg'ulot boshlanishidan oldin o'quvchilar mashg'ulotda yechilishi kerak bo'lgan o'quv muammosidan xabardor qilinishlari lozim. Ular hal etiladigan muammo yoxud vazifani bajarish to'g'risida muayyan vaqt davomida bosh qotirishlari, o'ylab ko'rishlari kerak. Shuningdek, o'quv guruhidagi o'quvchilar muayyan kichik guruhlarga bo'linib, guruhning har bir a'zosi aniq vazifa bilan ta'minlanishi zarur

2. **Dalillar topish.** Mashg'ulotda o'quvchilar hal etishlari kerak bo'lgan o'quv muammosi aniq va tushunarli bo'lishi, bir necha kun oldin xattaxtaga yozib qo'yilishi, o'quvchilar bilan muhokama qilinishi kerak. Muammo yuzasidan o'quvchilarning dastlabki fikrlari eshitib ko'rilsa, ular muvozanatdan chiqib, bezovta bo'lib qolishadi.

3. **Dastlabki mashq.** "Fikriy hujum" yordamida hal qilinishi zarur bo'lgan muammoni echishga o'quvchilarni ruhan va aqlan tayyorlash uchun dastlabki mashq o'tkazish foydalidir. Mashq qo'yilgan muammoga bevosita tegishli bo'lmasligi ham mumkin. Dastlabki mashq o'quvchilarda "fikriy hujum" usuli qanday bo'lishi haqida tasavvur uyg'otish uchun ham o'tkazilishi zarur.

4. Fikrlarni hisobga olish. Bu bosqich yechilishi kerak bo'lgan muammo yuzasidan o'quvchilarning fikriy hujumi bilan boshlanadi. Istagan o'quvchi muammoning yechimiga tegishli istagan fikrni, istagan vaqtda aytishi mumkin. Aytilgan har bir fikr kotiblar tomonidan yozib olinishi shart. O'quvchilar o'zlari bildirayotgan fikrlarning to'g'ri-noto'g'ri, yaxshi-yomonligidan cho'chimasliklari uchun quyidagi qoidalar xattaxtaga yozib qo'yilib, ularga hammaning amal qilishi ta'minlanishi kerak:

- fikrlar qandayligidan qat'i nazar, ularni **TANQID QILMASLIK, BAHOLAMASLIK, MUNOSABAT BILDIRMASLIK;**

- “fikriy hujum”da **NOTO'G'RI FIKR BO'LMAYDI.** Esga kelgan har qanday fikr o'ylab o'tirmay, aytilishi kerak. Ba'zan aynan bo'lmag'ur, “ahmoqona”, aqlga to'g'ri kelmaydigan fikrlar foydali g'oyalarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin;

- **FIKRLARNING MIQDORI MUHIM.** O'quvchilar imkon qadar ko'p fikr bildirishlari kerak. Chunki ortiqcha fikrlarni qisqartirish, yetmay qolgan fikrlarni ko'paytirishdan osonroq;

- **FIKRLARNI ALMASHTIRISH, QO'SHISH, YAXSHILASH LOZIM.** Hammaning fikri yozib olinib, ular maqsadga muvofiq tarzda joylashtirilishi, saralanishi, tahrir qilinishi, tahlil etilishi kerak;

- **BEMALOL BO'LISH, ZAVQLANISH KERAK.** “Fikriy hujum” kyechimida o'quvchilar asabiylashmasliklari, jarayon zavqli o'yin ruhida o'tishi kerak. “Fikriy hujum” qancha qiziqarli bo'lsa, shuncha ko'p samara keltiradi. O'yin ruhidagi qiziqarli faoliyatda guruh ichida do'stona vaziyat yuzaga kelib, o'quvchilar bir-birlariga yordam ko'rsatishadi;

- **BA'ZAN O'YLANIB JIM TURISH HAM FOYDALI.** O'ylanib jim turgan o'quvchilarni fikrsizlikda ayblamaslik kerak. Chunki jim turib o'ylayotgan odam biror noyob fikrni aytib yuborishi ham mumkin.

Shuni aytish kerakki, bu qoidalar har safar “fikriy hujum” usuli qo'llanganda yozilishi shart emas, o'quvchilar bu qoidalarni o'rganib, ularga amal qilishga

odatlangunlaricha, chamasi, uch-to'rt mashg'ulot davomida yoziladi. Keyinchalik, ularni yozib o'tirishga ehtiyoj qolmaydi.

Ta'lim jarayonini yuqoridagidek zamonaviy usullar orqali tashkil etish bir qator afzalliklarga ega. Bunday ta'lim, eng avvalo, o'quvchilarning bir-birlari yoki ularning o'qituvchi bilan faol, qizg'in, ta'sirchan muloqotlariga asoslanadi. Bunday muloqot asarni o'zlashtirish, adabiy qahramonlarning ichki kechinmalarini anglab etishning muhim shartidir. Zero, adabiy ta'lim so'z orqali o'rganish, so'z orqali o'qitish va so'z orqali anglash, his qilish deya e'tirof etilsa, faol o'quv muhitida so'z orqali o'zaro ta'sir etish tabiiydir. O'quvchilarni shunchaki o'qishga emas, o'qib o'rganishga, o'rgatib o'rganishga, o'rganib o'rganishga hamda shu ma'lumotlarni amalda hayotga tatbiq etishga undaydigan zamonaviy usullarga asoslangan pedagogik jarayon maqsadga yo'naltirilgan tizimli yondashuvlar amaliyotidir.

Ta'lim jarayonida zamonaviy usullardan foydalanishda quyidagi shartlarga amal qilinishi ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi:

1. O'quvchilar imkoniyatlarining zamonaviy ta'lim metodlari maqsadi va vazifalariga mos kelishi.

2. O'qituvchining kichik guruhlardagi o'quvchilarga ta'sir ko'rsata olish layoqatiga egaligi. Interfaol usullar qo'llanganda har bir o'quvchi faol, ta'sirchan suhbat, bahs-munozarani uyushtira olishi va, albatta, ijobiy natijaga erishishiga o'zida qat'iy ishonch bo'lishi lozim. Suhbat va dialoglarda "sub'ekt-sub'ekt" shaklidagi muloqotning kechishi ishtirokchilarning bir-birlariga ishonchlarining namoyon bo'lishidir.

3. Zamonaviy usullar asosidagi adabiy ta'limning samaradorligi uning shaxsga yo'naltirilganligiga, o'qituvchi va o'quvchilarning tashabbuskorligiga, faoliyatlarining izchilligiga bog'liqdir.

Zamonaviy usullar adabiy ta'limda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro tenglikka asoslangan faol muloqot, ta'lim jarayonida o'quvchilarning etakchilik qilishlari, bir-birlari bilan fikr almashishlari, o'rganilayotgan mavzu

yoki o'quv materiali bo'yicha mustaqil fikrlash, o'z qarashlarini ilgari surish, ularni dalillar yordamida asoslash va ma'lum xulosalarga kelish orqali ta'lim maqsadlariga erishish imkonini beradi.

Interfaol metodlar bir qator qo'shimcha didaktik imkoniyatlarga ega:

- o'qituvchi va o'quvchi, o'quvchi va o'quvchi, har bir o'quvchi va barcha o'quvchilar o'rtasida o'zaro ta'lim hamkorligini yuzaga keltiradi;

- o'quvchilarning o'qituvchi bilan samarali muloqotiga erishiladi;

- o'quvchilarda asar yuzasidan mustaqil fikrlash, muammo qo'yish, echim izlash, qaror qabul qilish va xulosaga kelish malakasini shakllantiradi;

- o'quvchilarda mumtoz epik asarni individual tarzda idrok etish va izohlash ko'nikmasini yuzaga keladi.

Ko'rinadiki, keyingi vaqtda keng tarqalayotgan zamonaviy ta'lim usullari o'quvchilarning mustaqil o'qishlari va erkin fikrlashlarini ta'minlashda katta samara keltiradi.

Boshlang'ich ta'limda **“Erkin yozish metodi”**dan ham unumli foydalanishimiz mumkin. Bunda o'quvchilarga besh daqiqa ichida o'rganilgan ma'lum bir badiiy asar mavzusida o'z hayollariga kelgan barcha narsalarni to'xtamasdan yozishni taklif qilish mumkin. Besh daqiqa tugaganida (eslatma, besh daqiqa tugadi deb e'lon qiling va ishni tugatish uchun yana bir daqiqa qo'shib bering, zero qiziqarli fikrlar odatda teng vaziyatlarda tug'iladi) ularga o'z yozganlarini sheriklariga o'qib berishini taklif etish mumkin.

Mazkur bosqichda o'qituvchining ixtiyorida ko'p imkoniyatlar bo'ladi. Masalan, juftliklarga o'z fikrlarini butun guruh bilan o'rtoqlashishni taklif etish va guruh bilan o'rtoqlashishni taklif etish va guruhliy-aqliy hujum vaziyatini yaratish mumkin.

“Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi” interfaol metod

“Ta'lim metodlari” bo'yicha chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligini to'g'ri yechishni beradi. Dastlab o'qituvchi doskaga ta'lim metodlarini chalkashtirgan holda yozib qo'yadi. So'ngra, ulardan mazkur metodlarni qaysi

guruhlarga kirishiga qarab, og'zaki , ko'rgazmali va amaliy metodlarga tasniflash taklif etiladi.

Mashq

Hikoya

Videometod

Munozara

Didaktik o'yinlar

Laboratoriya metodi

Suhbat

Tushuntirish

Ma'ruza

Kitob bilan ishlash

Illyustratsiya

Demostratsiya

Og'zaki	Ko'rgazmali	Amaliy
Hikoya	Videometod	Mashq
Munozara	Kitob bilan ishlash	Didaktik o'yinlar
Suhbat	Illyustratsiya	Laboratoriya metodi
Tushuntirish	Demostratsiya	

Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogic hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalar asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini kafolatlaydi.

Bizningcha, ta'limiy o'yinlarga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilar:

1. Ta'limiy o'yinlar o'quvchilar yoshiga mos bo'lishi kerak.
2. O'yinlar o'tilayotgan mavzu mazmun-mohiyatiga mutanosib bo'lishi lozim.
3. Ta'limiy o'yinlarni o'tkazish vaqti aniq belgilanishi shart.
4. Ta'limiy o'yinlar ham ta'limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi zarur.
5. Ta'limiy o'yinlarning o'tkazilish maqsadi, ahamiyati belgilanishi lozim.

Yuqoridagi fikrlarga amal qilgan holdagina dars samaradorligi ortadi va zmonaviy texnologiyalar ta'lim sifatiga ta'sir qiladi.

Shu bilan birga boshlang'ich sinf o'quvchilari dunyoqarashini xalq og'zaki ijodi namunalarining mazmun-mohiyatini ochib beruvchi mezonlarni ham ishlab chiqdik. Ishlab chiqilgan mezonlar asosida o'quvchilarning dunyoqarashi, tafakkuri, badiiy asar mazmun-mohiyatini qay darajada anglay olishlarini aniqlashga xizmat qiladi.

№	Mezonlar
1	Asar qahramonlariga xos muhim xatti-harakatiga o'z munosabatini bildirish.
2	Qahramonlar xatti-harakatini o'ziniki bilan solishtirib, muayyan xulosa chiqara olish.
3	O'rganilayotgan asarning bosh muammosini bilish va unda ifodalangan yetakchi fikrni aniqlash.
4	Asarni ifodali o'qish va obrazki qilib qayta hikoyalash
5	Asar yuzasidan berilgan muammoli vaziyatlarni mustaqil yecha bilish.

Ta'lim samaradorligini oshirish, eng avvalo, o'qituvchining pedagogik mahorati hamda uning ta'lim jarayoniga nisbatan yondashuvi muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik mahorati darajasi har bir dars hamda o'rganilayotgan mavzuning o'quvchilarga yetkazib berish jarayoniga nisbatan ijodiy, texnologik yondashuvni taqozo etmoqda.

Texnologik yondashuv negizida namoyon bo'luvchi holatlarning asosiysi –

bu dars jarayonining muayyan loyiha asosida tashkil etilishi sanaladi. Quyida biz ana shu xususida so'z yuritamiz.

Bizga yaxshi ma'lumki, ta'lim jarayonini texnologik yondashuvga muvofiq tashkil etish individual va ijodiy xususiyatga ega bo'lib, fan o'qituvchilarining ichki imkoniyatlari, shuningdek, ularning tashqi omillardan qay darajada foydalana olishlariga bog'liqdir. Shunday bo'lsada, biz ayni o'rinda 3-sinf "O'qish kitobi" darsligidagi "Ilmning omonati" rivoyatini o'quvchilar tomonidan chuqur o'rganilishiga imkon beruvchi dars namunasini keltiramiz (3-ilova).

Xulosa o'rnida shuni qayd etish lozimki, texnologik yondashuv asosida ta'limni tashkil etish ijobiy natijalarni beradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktab 3-sinflarda asarlarni o'rgatishda qo'llanilgan interfaol usullar o'quvchilarning yakka va o'zaro birgalikdagi faoliyati asosida amalga oshirildi.

Ijobiy ma'nodagi raqobatni tug'diruvchi musobaqa darsi esa o'quvchilarni nafaqat o'zi, balki guruhdoshlari oldidagi mas'uliyatni his qilishga yo'naltiriladi. Bunda ham sinfda kichik guruhlar hosil qilinadi va ularga bir xil mazmunda topshiriqlar beriladi.

Biz ushbu dars turini O'zbek xalq ertaklaridan "Rostgo'y bola" (1-sinf), "Hakka bilan tulki" (2-sinf) ertaklarini badiiy tahlil qilishga doir mavzularni o'tishda qo'lladik.

Topshiriqni bajarish uchun vaqt chegaralangan bo'lib, vaqt tugagach, guruhlar o'z ishlarini to'xtatadi. Sinfdagi o'quvchilarni guruhlariga ajratishda o'qituvchi ularning imkoniyatlarini hisobga olishi muhim. Chunki musobaqada kichik guruhlarining imkoniyatlari bir-birlaridan keskin farq qilmasligi kerak. Aks holda, xolis fikr kurashi amalga oshmaydi, natijalar ob'ektiv bo'lmay qoladi.

Dars jarayonining bunday shakl, metod va vositalar asosida tashkil etilishi ular tomonidan nazariy bilimlarning puxta o'zlashtirilishini ta'minlabgina qolmay, balki mustaqil va erkin fikr bildirish, o'z qarashlarini ilgari surish, ularni dalillash, shuningdek, tengdoshlari tomonidan bildirilayotgan g'oyalar mohiyatini tahlil

etish, ularni mazmunan boyitish, umumiy xulosalarga kelish imkoniyatini ham yaratadi.

Demak, tajriba sinfidagi o'zlashtirish nazorat sinfidagidan yuqori; 3-sinf o'qish darsligida berilgan xalq og'zaki ijodi namunalarini zamonaviy usullarda o'qitish yuzasidan o'quvchilarda tajriba va nazorat sinflaridagi natijalarning shakllanganlik ko'rsatkichlarini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari samarador ekan.

Mazkur bobda bildirilgan fikr-mulohazalarga tayangan holda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Pedagogik innovatsiyalarning boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan asarlarning puxta o'rganilishi jarayonida muayyan afzalliklarga ega ekanligi boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik texnologiyaga doir nazariy va amaliy bilimlar bilan qurollantirishni taqozo etadi.

2. Adabiy ta'lim jarayonining muayyan loyiha asosida tashkil etilishi, shuningdek, dars jarayonida elektron ko'rgazmali qurollardan foydalanish nafaqat darslarning muvaffaqiyatli bo'lishiga, shu bilan birga o'quvchilar tomonidan mavzularning puxta o'zlashtirilishiga zamin yaratadi.

3. Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik mahorati darajasi har bir dars hamda o'rganilayotgan mavzuning o'quvchilarga yetkazib berish jarayoniga nisbatan ijodiy, texnologik yondashuvni taqozo etmoqda.

Ta'lim jarayonida interfaol usullardan foydalanishda o'quvchilarning imkoniyatlari ushbu usullarning maqsad va vazifalariga mos kelishi, o'qituvchining o'quvchilar guruhlariga ta'sir ko'rsata olish layoqatiga egaligi ta'lim samaradorligini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

4. Asarlarni o'quvchilar tomonidan puxta va samarali o'zlashtirilishiga erishishda "Tarmoqlar", "Kichik guruhlarda ishlash", "Charxpalak", "BBB", "ASSESSMENT" kabi interfaol usullar eng qulay va qiziqarli metodlar ekani bois, ularni amaliyotga qo'llash ijobiy samara keltiradi.

2.2. LIRIK VA KICHIK JANRLARDAGI FOLKLOR ASARLARINI O'QITISHNING O'ZIGA XOSLIGI

Xalq og'zaki ijodi materiallarini pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish orqali o'quvchilarning chuqur va ongli bilim olishlariga va har tomonlama tarbiyasiga ta'sir etishining ilmiy-pedagogik asoslari olimlari va mutaxassislar tomonidan o'rganilib chiqilmoqda.

Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy ilmiy asoslangan dars hozirgi davrga kelib juda takomillashib ketdi. Ko'p davrlar darsning samaradorligi o'qituvchining qobiliyati, bilimdonligi, dars texnikasi va texnologiyasini mukammal bilishiga bog'liq deb sanalib kelingan. Keyingi paytlarda o'qituvchi bilan bir qatorda o'quvchilarning ham dars jarayonida faol va ongli ishtiroki muvaffaqiyatining asosiy kaliti deb hisoblanmoqda. O'qituvchi qanchalik harakat qilmasin, agar o'quvchi sust, mustaqil bilim olishga o'zini yo'naltirmasa ta'lim befoйда, urinishdan boshqa narsa bo'lmay qoladi. SHuning uchun ham so'ngi paytlarda pedagogik texnologiyalarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchi munosabatini hamkorlik asosida yo'lga qo'yishni taqozo etadi. Pedagogik texnologiyaning bir qancha o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, uni an'anaviy ta'lim nazariyasi va amaliyotidan ajratib turadi.

Aslida o'tgan asrning ikkinchi yarmida AQSHda ta'limning samaradorligini oshirish maqsadida dastlabki ta'lim texnologiyalaridan foydalanib boshlaganlar. Ular o'quvchilarning bilimlarini ob'ektiv baholash maqsadida texnologik usullardan foydalanganlar. Ijobiy natija olingandan keyin faqat baholashdagina emas, balki o'quvchilarga bilim berish, ko'nikma va malakalar hosil qilish o'quvchilarning bilim egallashiga ongli va faol ishtirok etishlarini ta'minlash hamda boshqa didaktik jarayonlarni amalga oshirishda ta'lim texnologiyalarini qo'llaganlar.

“Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo’yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt ichida muayyan nazariy bilimlarni o’quvchilarga etkazib berish ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko’nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek o’quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko’nikma hamda malakalar darajasini baholash o’qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni, ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Bugungi kunda qator rivojlangan mamlakatlarda o’quvchilarni o’quv va ijodiy faoliyatlarini oshiruvchi hamda ta’lim-tarbiya jarayonlarini samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo’llash borasida katta tajriba to’plangan bo’lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nima bilan yuritilmoqda.²⁹

X asrda yashab, ijod etgan Markaziy Osiyoning buyuk mutafakkiri va tibbiyotning asoschilaridan biri Abu Ali Ibn Sino dastlabki qo’shiq namunasi sifatida “Ona allasi” bola tarbiyasining boshlanishi ekanligini ta’kidlagan edi: “Bolaning talabini qondirmoq uchun unga ikki narsani qo’llamoq kerak. Biri – bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi – uni uxlatish uchun odat bo’lib qolgan musiqa allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolalarning tanasi bilan tarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo’lgan iste’dodi hosil qilinadi”³⁰.

Demak, umuman qo’shiq va uning bir turi “alla”ning o’zi bola tarbiyasida, xususan nafosat tarbiyasida bebaho qimmatga ega. Qo’shiqlarda faqat nafosat tarbiyasiga oid ta’sir kuchli bo’libgina qolmasdan, balki shu bilan birga aqliy, axloqiy, mehnat, jismoniy tarbiyaga oid qarashlar, ularni amalga oshirishda qo’llaniladigan usul va vositalar ham katta o’rin egallaydi.

²⁹ Tolipov O’., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqi y asoslari. (O’quv qo’llanma). -Toshkent: “Fan”, 2006. - 66 b.

³⁰ Abu Ali Ibn Sino. “Tib qonunlari”, 3 jildlik, 1 jild, T., 1994.

Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan qo'shiqlarning aksariyat ko'plari yangi davr qo'shiqlari bo'lib, Ona-Vatanni, xalqni, baxtli bolalik va farovon turmushni madh etishga qaratilgan.

O'tmish davr qo'shiqlarining bolalarga mos bo'lganlarini tanlash, darsliklarga kiritish, ularning mazmunini chin dildan his qilgan holda kuylash va tinglashga o'rgatish hozirgi davr talabi hisoblanadi.

Tarixiy qo'shiqlardagi mungli ohang, bugungi hayotning qadriga etish, undan zavqlanish va yanada fayzliroq qilish uchun intilishni hosil etishi zarur.

Bu maqsadga erishish uchun sinfda, sinfdan va maktabdan tashqarida amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi yaxshi natija beradi.

Pedagog bolalarning qofiya bilan o'yinlari, so'z ijodkorligi, she'rni davom ettirish va she'r to'qish, tashbehlar va taqqoslashlar o'ylab topishlariga asoslangan o'yinli hamda kulgili vaziyatlarini rag'batlantiradi.

O'quvchi o'zi xohlagan kichik she'r (ovunmoq) yoki ritmik tashkil etilgan matnni (bo'g'irsoq qo'shig'i, ertakning ayrim leytmotivlari) emotsional tarzda aytib berishi mumkin.

Bolaning adabiy ertakni yoki o'zi to'qigan ertakini ijro etishi (guruhda qayta hikoya qilish, yakka tartibda ifodali o'qish va kattalar bilan dialogda o'qish) uchun emotsional boyitilgan ijro muhitini yaratadi. Biroq, badiiy ertak faqat so'z bilan aytilmasdan, balki uning ayrim yorqin jihatlari bolalar va pedagoglarning birgalikdagi harakatlari natijasida sahnalashtirilishi, unga musiqiy ishlov berilishi, harakatlar, suratlar, konstruktiv modellar bilan ko'rsatilishi mumkin.

1-sinf "O'qish kitobi" darsligining "Xalq o'giti – baxt kaliti" bo'limiga bolalar qalbiga ona allasi bilan kirib kelgan og'zaki ijod namunalari kiritilgan bo'lib, ezgulik, to'g'ri so'zlik, sofdillik, nafosat, do'stlik, o'rtoqlik, ahillik haqida tasavvur hosil qiladi.

4-sinf "O'qish kitobi" darsligidagi "Xalq og'zaki ijodi" bo'limini o'rganish uchun esa 28 soat ajratilgan. Bunda o'quvchilar xalqimizning ming yillar mobaynida yaratgan sehrli-fantastik ertaklari, xalq dardi, istak-xohishi, orzu-

umidlari ifodalangan qo`shiqlar, bolalarning quvnoq o`yin-qo`shiqlari, hozirjavoblik, topqirlikni taqozo etadigan topishmoqlar, xalqning hayotiy xulosasi tarzida yuzaga kelgan purhikmat maqollar, seyr-jozibaga yo`g`rilgan rivoyatlarni o`qib-o`rganadilar. Bo`limning o`zi 5 qismdan iborat. Darslikda folklor asarlarini o`rganish uchun “Qo`shiqlar qanotida” bo`limi berilgan. Bunda “Boychechak”, “Oftob chiqdi olamga”, “Xo`p hayda” qo`shiqlari o`rganish uchun tavsiya etilgan.

Bola tarbiyasida qo`shiqning roli juda katta. Qo`shiq xalq og`zaki ijodining eng ko`p tarqalgan va ommalashib ketgan janrlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, alla qo`shig`i etakchi o`rinda turadi. Beshik qo`shig`i-allada kichkintoyning dastlabki tabassumi, ilk bor qo`l-oyoqlarini qimirlatishi, imo-ishorani tushunishi kuylanadi. Ona o`z allasida atrofni qurshab turgan olamni qo`shib aytadi.

Ovuntirish-allani hamma onalar, buvilar, bobolar aytishadi. Alloh beshikdagi chaqaloqqa xotirjamlikni ato etganligini, shu sababli hech qanday sharpa - dushman uning uyqusini buza olmaganligini quyidagi to`rtlikdan bilib olish qiyin emas.

Taka- tuqi gavora bo`lsin,
Dushmani ovora bo`lsin.
Uyqusi beshikda qolsin,
Dushmani eshikda qolsin.

Beshik qo`shig`ida avvalo beshikka ta`rif-tavsif beriladi. Aslida beshik yog`och –taxta. Paxta, par va matolar bilan burkanganda u yumshoq, har qanday murg`akka huzur baxsh joy bo`lishi har bir beshik qo`shig`ida chiroyli ifodaga ega.

Ona uchun bolaning ovunishi, tinchligi tabassumi kerak. Alla asta-sekin ommaviy qo`shiqqa aylanadi. Qo`shiqlar uzoq yillar mobaynida davom etadi. Beshik qo`shiqlari kenja avlod kamolotida o`ziga xos tarbiya rolini o`taydi. Xalq qo`shiqlarida rasm-rusmlar rang-barang. Hammasi o`rinli. Hammasi zarur.

«Chittigul»da mavzu nihoyatda rang-barang va juda jozibali. Chunonchi,
Oq sholiga ko`k sholi,

Oq sholini oqlaylik,
Ko'k sholini ko'klaylik
Yaxshi kunga saqlaylik,
Hayu, chittigul.

Hayu, chittigul singari misralariga nazar soladigan bo'lsak, bu qo'shiqda asosan g'alla-sholi to'g'risida gap ketadi. Sholining turi, rangini eslatish orqali juda mo'l bo'lganligini; bu mo'l-ko'l sholini pala partish qilib yeb-tamomlamasdan, balki uni ehtiyotlab, tejamkorlik bilan ishlatish darkorligi bolalar tilidan chiroyli tasvirlangan. Qarang, bugungi kunda tejamkorlik, iqtisod haqida bolalarga ko'p gapiramiz.

Yuqoridagi qo'shiqdan ayon bo'lishicha, ota-bobolarimiz azaldan har bir narsani tejab-tergab ishlatishni o'z farzandlariga qattiq o'rgatib kelishgan.

Bolalarning aytishuv-oq terakmi, ko'k terak qo'shiqlari ham hamma zamonlarda katta shuhrat qozonib kelgan. Bu qo'shiqda ko'pincha o'ziga xos obro'-e'tiborga muyassar bo'lgan bolalar tilga olinadi. Ularning ibratomuz jihatlari bolalar o'rtasida ta'kidlanishi qo'shiqning yanada jozibali chiqishini ta'minlaydi.

Aytishuv qo'shiqlari bolalarni mehnatkash, odob-axloqli, o'qimishli bo'lib kamol topishiga da'vat etaveradi. Bunday qo'shiqlar qanotida o'sgan har bir bola sog'lom fikrli, el sevar bo'lishiga hech shubha yo'q. Ayniqsa, mana bunday hazil-mutoyibali qo'shiqlar kichkintoylarga olam-olam quvonch bag'ishlaydi:

1-bola. Qayrag'och! Chandisha olmasang, yo'qol,qoch!

2-bola. Tut, javob bera olmasang, damingni tot!

Qadimda ota-bobolarimiz shamol yordami bilan tegirmon yurgizishgan, shamol yordami bilan g'allalarini tozalashgan.

Ramazon qo'shiqlari ham dillarga huzur bag'ishlaydi. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, qo'shiqlar bolalarning nafosatini o'stirishga, ularni hayot va mehnatga muhabbat, vatanparvarlik, do'stlik, qahramonlik, insonparvarlik kabi olijanob fazilatlar ruhida tarbiyalashga yordam beradi.

Lirik qo'shiqlarga xos xususiyatlar, ularning ijro o'rni, ohang yo'llari, an'anaviy takrorlari, qo'shiqlarda parallelizm, vazn, qofiya, badiiy til masalalari, mavzu turlari o'rganiladi. Lirik qo'shiqlarda ramz va timsollarning vazifalari ko'rsatiladi. Qo'shiqlarning janr xususiyatlari, asosiy xossalari o'rganiladi, ularning inson qalb kechinmalari tarjimoni ekanligi ta'kidlanadi.

Latifa xalq og'zaki ijodining keng tarqalgan kichik nasriy janri sifatida. Latifalarning janr xususiyatlari va badiiy qatlam ma'nolari ochiladi. Ularning kompozitsion jihati, til xususiyatlari, zamonaviy latifalarning ijtimoiy mazmuni yoritiladi. Nasriddin Afandi obrazining genezisi va unga yondash Ovul Patta, Jiyyon Chechan kabi qahramonlar bilan bog'liq jihatlari ko'rsatiladi.

Loflardagi mubolag'a san'atining o'rni va badiiy vazifalari tahlil etladi. Loflar – askiyaga yaqin turuvchi janr sifatida. Mubolag'a va uning turlari haqida ma'lumot.

Respublikamizning bir qator viloyatlarida turli shakl-ko'rinishlarda hozirgacha amal qilib kelayotgan "Boychechak" marosimi ham ushbu tizimning o'ziga xos ko'rinishi hisoblanadi.

Marosimni nisbatan to'laroq halqalarini Namangan viloyatining Chortoq tumani hududida kuzatish mumkin. Bu yerda bolalar erta ko'klam boychechakni topib, bir guruh bo'lib, jo'raboshi yetagida xonadonma-xonadon kezib chiqishadi. Boychechakchilar har bir xonadon darvoza oldida to'xtaganda, jo'raboshi ushbu qo'shiqni kuylaydi:

– Boychechak aytib keldik eshigingizga,

Xudoim o'g'il bersin beshigingizga, –

Guruh esa:

– Bota, bota-bo, boychechak,

Uyingizga choch tilla.

Iloyim o'g'il bersin,

Otginasi Rahmatilla,

Uy egasi ko'rinish berganda:

– O‘tirib chiqing,
O‘tirib chiqing,
Yog‘och tovoqni to‘ldirib chiqing, –
deydilar.

Dostonlar esa og‘zaki ijod mahsuli sifatida folklor an‘analarga bo‘ysungan holda yaratiladi. Filologiya fanlari doktori, professor M.Saidov ta‘rificha, og‘zaki ijoddagi dostonlarda she‘riy va nasriy parchalardan iborat badiiy manba – matn bo‘lishi kerak. Ikkinchidan, dostonning muzikasi bo‘lishi lozim (Bu o‘rinda shuni aniqlab olish kerakki, har bir alohida olingan doston uchun alohida yirik muzika asari bo‘lishi shart emas). Uchinchidan, dostonni bir kishi ijro etganligi tufayli kuylovchi do‘mbira cherta bilishi yoki qo‘biz chala bilishi zarur. To‘rtinchidan, dostonni kuylayotgan baxshi yaxshi ovozga ega bo‘lishi va qo‘shiq aytish mahoratini egallagan bo‘lishi zarur³¹.

Xalq og‘zaki ijodidagi doston folklorshunos olimlarning diqqatini alohida o‘ziga jalb qilgan, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi tarkibida eng ko‘p o‘rganilgan, katta munozaralarga sabab bo‘lgan, qolaversa, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi merosini butun dunyoga ma‘lum va mashhur qilgan janrdir.

Adabiy ta‘lim samaradorligini oshirish, eng avvalo, o‘qituvchining pedagogik mahorati hamda uning ta‘lim jarayoniga nisbatan yondashuvi muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik mahorati darajasi har bir dars hamda o‘rganilayotgan mavzuning o‘quvchilarga etkazib berish jarayoniga nisbatan ijodiy, texnologik yondashuvni taqozo etmoqda. Texnologik yondashuv negizida namoyon bo‘luvchi holatlarning asosiysi – bu dars jarayonining muayyan loyiha asosida tashkil etilishi sanaladi. Quyida biz ana shu xususida so‘z yuritamiz.

Bizga yaxshi ma‘lumki, ta‘lim jarayonini zamonaviy yondashuvga muvofiq tashkil etish individual va ijodiy xususiyatga ega bo‘lib, fan o‘qituvchilarining ichki imkoniyatlari, shuningdek, ularning tashqi omillardan qay

³¹Saidov M. Doston G‘ Muhammadnodir Saidov – Ma‘rifat fidoyisi. - T.: Mumtoz so‘z, 2009. – B. 7.

darajada foydalana olishlariga bog'liqdir. Shunday bo'lsada, biz ayni o'rinda xalq og'zaki ijodi namuna (lirik janrlar) larining o'quvchilar tomonidan chuqur o'rganilishiga imkon beruvchi dars namunasi (loyihasi)ni keltirmoqchimiz.

Darsning maqsadi: Lirik janrlardagi folklor asarlarida ilgari surilgan g'oyalar mohiyatining o'quvchilar tomonidan chuqur anglanishiga erishish.

Xususiy maqsadlar:

1) o'quvchilarga lirik janrlardagi folklor asarlarining yaratilishi haqida nazariy ma'lumotlar berish;

2) o'quvchilar tomonidan yurt ozodligi, inson erki va ularga erishish hayotiy ehtiyoj, ma'naviy zaruriyat ekanligini anglab etilishiga erishish.

Dars jarayonida hal etilishi zarur bo'lgan vazifalar:

1. O'quvchilarga Lirik janrlardagi folklor asarlari borasidagi nazariy ma'lumotlarni berish.

2. O'quvchilarning Lirik janrlardagi folklor asarlari mazmuni bilan to'la tanishishlariga erishish.

3. O'quvchilar tomonidan Lirik janrlardagi folklor asarlari g'oyasi va echimi mohiyatining chuqur anglanishini ta'minlash.

4. O'quvchilarda Lirik janrlardagi folklor asarlarida ifoda etilgan hayotiy voqelik negizida o'z aksini topgan ijtimoiy hodisa, uni keltirib chiqaruvchi sabablar, shuningdek, yakuniy xulosa borasidagi qarashlarni qaror toptirish.

Darsning shakli: aralash dars.

Darsda qo'llaniluvchi usullar: kichik guruhlarda ishlash («6X6X6» metodi), savol-javob, «Klaster», qiyosiy tahlil.

Dars jihozlari: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3***-sinfi uchun mo'ljallangan «O'qish kitobi» darsligi, qo'shiqlardan olingan parchalar o'z aksini topgan matnlar (ish qog'oziga chop etilgan matnlar), lirik janrlardagi folklor asarlari yozilgan audiokasseta, jadval, tasvir va boshqalar.

Darsning borishi:

I. Lirik janrlardagi folklor asarlari bo'yicha o'quvchilarga nazariy ma'lumot berish. Ushbu jarayonning o'quvchilardan biri yoki bir nechta o'quvchi tomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Lirik janrlardagi folklor asarlarini qayd etuvchi jadval yordamida olib boriladi.

II. Kichik guruhlarda ishlash («6X6X6» metodi). O'quvchilarning umumiy soni e'tiborga olingan holda ular 5 yoki 6 nafardan bir necha guruhlariga bo'linadi. Har bir guruhga lirik janrlardagi folklor asarlaridan olingan parcha yozilgan matn beriladi. Guruhlar belgilangan vaqt (5 yoki 6 daqiqa) ichida ushbu matnlar bilan ishlaydilar. So'ngra guruhlar qayta shakllantiriladi. Bu jarayonda yangi guruhlarda avvlgi guruhlarining 1 nafar a'zosi bo'lishiga e'tibor beriladi. Yangi guruhning har bir a'zosi guruhning boshqa ishtirokchilariga o'zi o'rgangan matn mazmunini qisqacha hikoya qilib beradi. Shu tarzda o'quvchilar kichik lirik janrlarning mohiyati bilan 3 yoki 5 daqiqa ichida tanishib chiqadilar.

III. Klaster metodi asosida ishlash. O'quvchilar guruhlariga bo'linadilar. Har bir guruh kichik hajmli vatman yoki sinf yozuv taxtasida asar mohiyatini yorituvchi tasvirni yarata olishlari lozim.

IV. Debat tashkil etish. O'quvchilar o'rtasida asardan olingan taassurotlar bo'yicha bahs uyushtiriladi. Ularning e'tiboriga quyidagi savollar havola etiladi:

1. Sizning fikringizcha, "Chittigul" turkumiga kiradigan qo'shiqlarning mavzu doirasi rang-barangligi nimada?
2. Siz qanday fikrdasiz, qo'shiqlar bolalarning nafosatini o'stirishga, ularni hayot va mehnatga muhabbat, insonparavarlik kabi olijanob fazilatlar ruhida tarbiyalashga qanday yordam beradi? Va hokazo.

V. Savol-javob asosida o'quvchilarning bilimlarini aniqlash. O'quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Qo'shiqlar haqida qanday ma'lumotlarga ega bo'ldingiz?
2. «Chittigul» tukumiga kiradigan qo'shiqlarning mohiyatini ochib bering.

3. Aytishuv qo'shiqlari, ramazon qo'shiqlarining bosh g'oyasi nimadan iborat?

4. «Oq terakmi, ko'k terak», «Ramazon» qo'shiqlari qanday so'zlar yordamida ifodalanadi ?

Darsni tashkil etishda asosiy e'tibor o'quvchilarning mustaqil faoliyat yuritishlariga qaratiladi. O'qituvchining dars jarayonidagi o'rni o'quvchilar faoliyatini yo'naltirish, maslahat berish, fikrlarni umumlashtirish va yakuniy xulosani bayon etishdan iborat bo'lishi lozim.

Xulosa o'rnida shuni qayd etish lozimki, texnologik yondashuv asosida ta'limni tashkil etish ijobiy natijalarni beradi.

MAVZU: QO'SHIQ - XALQ OG'ZAKI IJODI

Dars materiali: Darslikning 29-betidagi xalq qo'shiqlari.

Dars maqsadlari:

Ta'limiy maqsad: «Qo'shiq» (29-betidagi)ni o'qish. Qo'shiqning turli mazmunda bo'lishini tushuntirish.

Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarning san'atga, musiqaga bo'lgan qiziqishini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarning turli janrdagi asarlarni o'qish malakalarini shakllantirish va o'quvchilar nutqini rivojlantirish.

Darsning borishi: Dars 3- sinf «O'qish kitobi»ning 29-betida berilgan rasm yuzasidan suhbat o'tkazishdan boshlanadi. Buning uchun avval o'quvchilar rasmni kuzatadilar. Nimalar tasvirlanganligini aniqlaydilar. Shundan so'ng o'qituvchi o'quvchilarga quyidagi savolni beradi:

- Rasmda nimalar tasvirlangan?

(Javob:- Rasmda doston kuylovchi baxshi, humo qushi, ertaklarda uchraydigan tulporlar tasvirlangan).

So'ngra o'quvchilardan bilgan qo'shiqlarini aytish so'raladi. Masalan, «Chitti gul»ni aytadilar:

Chitti guley, chitti gul, qo'ling gulbogda bo'lsin,

Etagingga gul bosdim. Beling belbog'da bo'lsin.
Hayu chitti gul, Hayu chitti gul,
Hayu chitti gul. Hayu chitti gul.

So'ng o'qituvchi muallifi yozilgan va muallifi yozilmagan qo'shiqlarga o'quvchilar diqqatini qaratadi. Muallifi bor qo'shiq bir kishi tomonidan yozilgan bo'ladi. Muallifi yo'q qo'shiq xalq tomonidan yaratilgan. So'ng xalq tomonidan yaratilgan qo'shiq va ertaklar xalq ogzaki ijodi hisoblanishi tushuntiriladi.

Shundan so'ng o'qituvchi darslikdagi birinchi qo'shiqni o'quvchilarga o'qitadi yoki yod olgan o'quvchi bo'lsa, kuyga solib aytiladi. O'qituvchi o'quvchilardan qo'shiq qaysi mavsumga mosligi unda nimalar kuylanganligi so'raydi va ular javobini to'ldiradi.

O'quvchilarga qo'shiqning ikkinchisi ya'ni «Xey, lola» ichida o'qish topshiriladi. To'xtamlarga rioya qilish, ohangini linqlash, ifodali o'qishga tayyorlanish aytiladi. So'ng bir necha o'quvchiga ifodali o'qitiladi. Har bir satr tahlil qilinadi, mazmuni haqida o'quvchilardan so'raladi. O'quvchilar fikri o'qituvchi tomonidan to'ldiriladi. qo'shiqda yurt tinch bo'lishi, odamlar osoyishta hayot kechirishi, xalqning orzu-umidlari kuylanadi.

Chunki, xalqimiz o'tmishida amirlar, beklar, xonlar va xorijiy davlatlar tomonidan jabr-zulm tortgan, azob-uqubatda yashagan. Shuning uchun ham o'tmishda xalq o'z hayotida noroziligini ifodalab qo'shiqlar yaratgan.

Hozirgi vaqtda yaratilgan qo'shiqlarning mazmuni o'zgargan.

Masalan, «Ona bitta- Vatan yagona» bo'lishida kimning qaysi qo'shig'ini o'rgangan Edik? (Anvar Obidjonning «O'ktam avlod» va Kavsar Turdievaning «Dunyoni saqlar bolalar» qo'shig'ini o'rgangan edik).

Uyga vazifa: Darslikning 29-betidagi qo'shiqni o'qish va yod olish.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar

Ko'plab nazariy-metodik adabiyotlarni o'rganish, ularning qiyosiy tahlili va o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari davomida erishilgan natijalarning atroflicha tahliliga tayanib quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

1. "Zamonaviy ta'lim usullari" deganda xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rganish bo'yicha o'quvchilarning oldiga qo'yilgan pedagogik muammoni mustaqil echishga xizmat qiadigan interfaol metodlar ko'zda tutiladi.

2. Interfaol metodlar o'quvchilar oldiga muammo tarzida qo'yilgan asarni o'zlashtirish uchun o'zi o'qibgina qolmay, bir-birlarini ham o'qishga yo'naltirishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

3. Interfaol usullar mustaqil izlanishga qaratilgani uchun o'quvchilarni qo'shimcha manbalar bilan ishlashga yo'naltiradi.

4. Adabiy ta'lim bo'yicha zamonaviy o'qitish usullari ta'limning kichik guruhlarda tashkil etilishini ko'zda tutadi va guruhdagi har bir o'quvchining bir-birlari hamda o'qituvchi bilan faol, qizg'in, ta'sirchan muloqotlariga asoslanadi. Bunday muloqot badiiy asarni o'zlashtirish, o'rgatish orqali o'rganish bilan birga o'quvchilarning ichki kechinmalarini namoyon qilishning muhim shartidir.

III BOB. TAJRIBA-SINOV ISHLARINING SAMARADORLIK DARAJASI

3.1. MAKTABDA XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARINI ZAMONAVIY USULLAR ASOSIDA O'RGATISH OMILLARI

Tajriba-sinov ishlari dissertatsiya oldiga qo'yilgan asosiy ilmiy muammo bo'lmish Xalq og'zaki ijodi namunalarilarini o'rgatishda zamonaviy ta'lim usullari nechog'lik to'g'ri va tizimli qo'llanilayotgani hamda bu jarayonning samarasi o'laroq o'quvchilarning O'qish fani bo'yicha bilim darajalari qandayligini o'rganish maqsadida tashkil qilindi.

Ma'lumki, bugungi kunda o'quvchilarning bilimi ta'lim davlat standarti talablariga qay darajada javob berishini tekshirish reyting usulida amalga oshirilmoqda. Adabiy ta'limda o'quvchilarning bilimini test orqali tekshirish boshqa o'quv fanlaridagidan katta farq qiladi. Chunki adabiy ta'limda bilimga qaraganda o'quvchining ma'naviy dunyosini shakllantirish ustuvorlik qilishi lozim bo'lgani uchun tekshirishning usul va vositalari ham o'quvchilarning ma'naviy jihatdan komilligini ko'rsatib berishga yo'naltirilmog'i lozim. Shu o'rinda ma'naviy komillikni aniqlab beradigan etalon daraja bormi, degan savol tug'iladi. Ushbu savolning javobi cheksiz miqdordagi insoniy sifatlarni sanash yoki "beayb faqat Yaratgan" deya talqin orqali javob berilsa, unda adabiy ta'limda asarlardagi ma'naviy rivojlantirish yuzasidan tuzilgan test savollarining o'ta nisbiyligi namoyon bo'ladi.

Tajribalarimizning dastlabki bosqichi o'qituvchilarni zamonaviy usullardan foydalanishga o'rgatish vazifasini amalga oshirishni ko'zda tutdi. O'qituvchilarga o'z innovatsion faoliyatini quyidagi bosqichlarda tashkil qilish tavsiya etildi:

1. Zamonaviy ta'lim usullarining mohiyatini o'rganish.

2. Zamonaviy o'qitish usullarini tushunish, ushbu usullarning qanday o'quv natijalariga olib kelishini anglash.

3. O'z oldiga interfaol usullarni o'zlashtirib olish maqsadini qo'yish.

4. Kerakli vositalar, ma'lumotlar bazasini aniqlash.

5. O'zlashtirgan zamonaviy usulni o'z pedagogik faoliyatida qo'llash.

6. Natijalarni tahlil qilishni o'rganish, ya'ni ushbu usullarni tatbiq qilganga qadar (dastlabki) va ularni qo'llagandan keyingi (yakuniy) holatlarni qiyoslash.

7. Erishgan natijalari tahliliga ko'ra yangi maqsadlar belgilash.

Ushbu bosqichlar bir-birini to'ldirib, birining natijasi keyingi bosqich vazifasi uchun omil bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy usullarni ta'lim amaliyotiga qo'llab ijobiy natijalarga erishgan o'qituvchi metodik yangiliklarni izlay boshlaydi. Izlanuvchan o'qituvchi faoliyati shu tariqa samarali bo'lib boradi. Bu jarayonning adabiy ta'limdagi in'ikosi o'quvchining:

- mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanishi;

- tez o'zgarib borayotgan hayotda o'zining muayyan qarashiga (bu jihat asosan o'quvchining badiiy asar qahramonlari taqdirining tanqidiy tahlili zaminida shakllanadi) ega bo'lishi;

- kommunikativ malaka va ko'nikmalarni egallashi;

- umuminsoniy axloqiy me'yorlarga rioya qilishi;

- o'z oldiga maqsad qo'yish va unga erishish rejalarini tuzish;

- o'z fikrini og'zaki va yozma shakllarda tushunarli bayon etishi;

- hayoti davomida tanlash imkoniyatlari tug'ilganda, o'z dunyoqarashi va qiziqishi doirasida hamda ma'naviy–moddiy ehtiyojlari miqyosida tanlay olish kabi zaruriy hayotiy ko'nikmalarni egallashlari bilan belgilanadi.

Tajriba-sinov ob'ekti etib belgilangan maktab o'qituvchilari bilan olib borilgan ta'limiy tajribalarimiz davomida jarayonga ta'sir etgan omillardan kelib

chiqib, o'qituvchilarni zamonaviy usullar bilan tanishtirish va ulardan amaliyotda foydalanishga o'rgatish natijasida adabiy ta'lim jarayonini yaxlit tizim asosida nazorat qilish, yo'naltirish, o'z vaqtida metodik yordam va amaliy tavsiyalarni berib borish uchun "O'quvchilar faoliyatini nazorat qilish va o'quv materialining to'la o'zlashtirilishiga erishish" uchun muntazam olib boriluvchi, ya'ni darsning muayyan bosqichida o'tkaziladigan ta'limiy muhokama mazmunini ishlab chiqdik.

O'quvchilar bilan yuqoridagi ta'limiy muhokamani amalga oshirib bo'lgach, o'rgangan usullarini amaliyotda qo'llaganda nimalarga e'tibor berish kerakligi yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqishga ehtiyoj tug'ildi.

Ko'p yillik tajriba va o'rgangan pedagogik adabiyotlarning tahlili asosida adabiy ta'lim jarayonida zamonaviy usullardan foydalanganda o'qituvchilar nimalarga e'tibor berishi kerakligi yuzasidan quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Ta'limni zamonaviy o'qitish usullarida uyushtirish jarayoniga yaxshi tayyorgarlik ko'rish. Tayyorgarlikning yetarli bo'lishi kutilayotgan natijaga erishishning birinchi va eng ishonchli omilidir. Tajribada ishtirok etgan o'qituvchilar oldiga har bir dars rejasi, unga kerakli jihozlar, texnik vositalar, xonalarning holatini yuksak darajada tayyorlash talabi qo'yiladi. Bu bilan o'qituvchi "Zamonaviy usul asosida dars o'tish o'qituvchini mutlaqo qiynamaydi, ortiqcha kuch talab qilmaydi",– degan qarashning noto'g'ri ekanini bilib oldi. Har qanday yaxshi dars, u xoh an'anaviy, xoh noan'anaviy bo'lsin, unga har tomonlama: gigienik, tashkiliy-pedagogik, psixologik, metodik jihatdan tayyorlanish o'qituvchidan vaqt, kuch, sabr, mas'uliyat, qog'oz va boshqa tegishli narsalarni talab qilishi muqarrar. Zamonaviy usullar asosidagi dars jarayonida barchaning ishtiroki ta'minlanadi. O'qituvchining butun vujudi "ko'z" va "quloqqa" aylanadi. Masalan, sinf xonasida 4ta guruh ishlayapti. To'rtala guruh faoliyatini bevosita va bilvosita kuzatishga ulgurish, bundan tashqari har bir fikr, luqmani e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak.

2. Har qanday vaziyatda muammoning yechimini topish va asoslashga harakat qilish.

3. Maqsadning aniq va ravshan bo'lishi. Darsdan ko'zlangan maqsad aniq va real bo'lsa, ishni tashkil etishning samarali yo'llarini topish, natijaga erishish uchun maqbul mazmun va vositalardan foydalanishga mustahkam zamin yaratiladi.

4. Jarayonning ko'rgazmaliligiga e'tibor berish. Zero, zamonaviy usullardan foydalanishning zaruriy sharti ko'rgazmalilikdir. Bunday ta'lim ko'rgazmalilik, illyustratsiya va sayohat tariqasida olib boriladi. Mavzuning mazmuniga bog'liq bo'lgan narsa, hodisa va voqealarni hamma vaqt sinf sharoitida namoyish qilish maqsadga muvofiq emas. Shuning uchun ham o'tilayotgan mavzuning mazmuniga qarab, o'qitishni tashkil etishning sinfdan tashqari shakllaridan foydalaniladi.

5. Puxta o'ylangan reja asosida ish olib borish. Reja mavzu va qo'yilgan maqsadga asosan tuziladi. Uni shunday tuzish kerakki, sinfdagi o'quvchilarning ayrimlari ta'lim jarayonida oqsab qolishi mumkinligi ham inobatga olinsin. Shunda muammoli vaziyatlarni bartaraf etish yo'l va usullari oldindan rejalashtiriladi.

6. Adolatli bo'lish. Jarayon davomida o'quvchilardan bildiriladigan fikrlarning eng maqbulini tanlashda va ularga shaxsan murojaatlarni qilishda xushmuomala bo'lish va xolis turish. (Sening gaping juda to'g'ri, sen juda yaxshi gapirding, sening fikring mutlaqo noto'g'ri, ...ning fikriga nisbatan, ...ning fikri o'rinli va h.k. mazmunidagi munosabatlardan qochish) barcha o'quvchiga birday munosabatda bo'lish.

7. Tayanch savollarni berib o'quvchilarni faollikka undash. Ayrim o'quvchilar o'qituvchi bilan muloqotga kirishmaslikka, o'rtoqlariga halaqit berishga harakat qiladi. Shunday vaziyatlarda yo'naltiruvchi savollar berib, jarayonni mo'tadil o'quv muhitga aylantirish zarur.

8. Mavzudan chetga chiqmaslik. Dars jarayonida o'quv muhitini mo'tadil ushlab turish uchun vaqti-vaqti bilan maqsadli lirik chekinishlar qilishga ehtiyoj tug'iladi.

9. Murosali bo'lish, ayni vaqtda, aniq belgilangan tartib-qoidalariga amal qilish.

10. Jarayonni yaxshilik bilan va o'quvchilarning yutuqlarini ta'kidlagan holda yakunlash. O'rgangan ma'lumoti kelajakda o'quvchiga nima berishi, asar qahramonining qaysi jihati hayoti davomida qo'l kelishi mumkinligini aytib darsni yakunlash.

Uchinchi bob bo'yicha xulosalar

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, zamonaviy yondashuvlarga quyidagi uch pedagogik jihatni asos qilib olish mumkin:

1. Tizimli yondashuv.
2. Natijalarning kafolatlanishi.
3. Usullar majmuasi va vositalarning uyg'un qo'llanilishi.

Adabiy ta'limni zamonaviy o'qitish usullari asosida tashkil etishda jarayonning tarkibiy tuzilmasi tizimli ravishda puxta va o'zaro uzviy, bir-birini to'ldiruvchi munosabatlarda bo'lishi va oldindan ko'zlangan aniq natijaga yo'naltirilishi muhim omillardan sanaladi.

Xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rgatishni samarali tashkil etishda o'quvchilarning qiziqish va maqsadlari umumiy bo'lishiga erishish asosiy shartlardan biridir. Chunki har qanday ishni boshlashdan oldin inson ko'z o'ngida mo'ljal namoyon bo'ladi, u shu mo'ljalga etish uchun oldiga vazifalar qo'yadi. So'ngra vazifalarni qanday reja va qaysi vositalar orqali amalga oshirish mumkinligi ustida fikr yuritadi. Ushbu jarayonning borish tartibi asar mazmunini o'zlashtirish uchun ham xosdir. Ya'ni har qanday o'qitish jarayoni aniq maqsadni ko'zlaydi. Maqsad aniq va real bo'lsa, natijalar ham samarali bo'lishi tabiiy. Bundan tashqari, pedagogik jarayonning amalga oshirilishi unda qo'llaniladigan usul va vositalarning maqsadga muvofiqligiga ham bog'liqdir. O'rganuvchi

tadqiqotda o'qituvchilarning darslarga qo'yayotgan maqsadlari bilan uni olib borish bosqich va usullari bir-biriga to'g'ri kelmasligi kuzatilgan edi. Darsga qo'yilayotgan maqsad va unga erishish uchun tanlangan usul, vositalarning bir-biriga mos bo'lishiga erishish maqsadida o'qituvchilar uchun "Maqsad belgilash", "Tarqatma materiallar tayyorlash" talablari ishlab chiqildi.

Zamonaviy o'qitish usullaridan foydalangan o'qituvchilar o'zlariga qo'yiladigan pedagogik talablarga alohida e'tibor berishlari muhimdir. Tajriba-sinov ishlarida qatnashgan o'qituvchilar interfaol ta'lim muhitida rioya qilinishi lozim bo'lgan quyidagi talablar bilan tanishtirildi:

- pedagogikaning umumiy qonun-qoidalarini, didaktik prinsiplarni bilish;
- ta'limni loyihalash, individuallashtirish, birgalikdagi ta'lim haqida tushunchaga ega bo'lish;
- adabiy ta'limdagi "individual yondashuv", "tabaqali o'qitish", "individual o'qitish" tushunchalari o'rtasidagi bog'lanish va farqlarni bilish;
- ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirish mohiyatini bilish;
- mavjud sharoitdan kelib chiqqan holda maqsad qo'ya bilish;
- o'quv materialini mantiqiy qismlarga ajratish;
- o'quv jarayonini o'zi va o'quvchi uchun qulaylashtirish;
- o'quvchilarning o'zlashtirishi, ma'naviy kamolini nazorat qila bilish.

Ta'lim jarayonini zamonaviy usullar asosida tashkil etishda o'qituvchining pedagogik va psixologik jihatdan tayyorligi qanchalik zarur bo'lsa, o'quvchilarning mazkur jarayonda faol ishtirok etishi, ya'ni o'zining salohiyatidan to'g'ri foydalanishga tayyor bo'lishi ham shunchalik muhim hisoblanadi.

Badiiy adabiyot jamiyat rivojlanishiga bog'liq holda unga mos taraqqiy etar ekan, uning o'qitilishida ham shunday moslashuv bo'lishi talab etiladi.

Adabiy ta'limda zamonaviy ta'lim usullaridan foydalanish asosida o'quvchi shaxsini shakllantirish, deganda badiiy asarlarda tasvirlangan hayotiy voqealar, aks etgan huzur va baxt, shodlik va qayg'u, iftixor va afsus, kuyinchaklik va loqaydlik kabi ruhiy kechinmalar orqali o'quvchida o'z ma'naviyatiga oid

mezonlar ishlab chiqilib, ularning jamiyatdagi mavjud qonunlarga muvofiqligiga rioya qilishga tayyorlash ko'zda tutiladi.

Bugungi yoshlarning hayotda rioya qilinishi lozim bo'lgan ma'naviy me'yorlarga muvofiq tarbiya topishi va shuning ta'sirida jamiyat ma'naviyatining shakllanishida Xalq og'zaki ijodi namunalilarining o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham ushbu jarayonni samarali tashkil etish ulkan qimmatga egadir.

UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR

Ko'plab nazariy-metodik adabiyotlarni o'rganish, ularning qiyosiy tahlili va o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari davomida erishilgan natijalarning atroflicha tahliliga tayanib quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

1. "Zamonaviy ta'lim usullari" deganda xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rganish bo'yicha o'quvchilarning oldiga qo'yilgan pedagogik muammoni mustaqil echishga xizmat qiadigan interfaol metodlar ko'zda tutiladi.

2. Interfaol metodlar o'quvchilar oldiga muammo tarzida qo'yilgan asarni o'zlashtirish uchun o'zi o'qibgina qolmay, bir-birlarini ham o'qishga yo'naltirishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

3. Interfaol usullar mustaqil izlanishga qaratilgani uchun o'quvchilarni qo'shimcha manbalar bilan ishlashga yo'naltiradi.

4. Adabiy ta'lim bo'yicha zamonaviy o'qitish usullari ta'limning kichik guruhlarda tashkil etilishini ko'zda tutadi va guruhdagi har bir o'quvchining bir-birlari hamda o'qituvchi bilan faol, qizg'in, ta'sirchan muloqotlariga asoslanadi. Bunday muloqot badiiy asarni o'zlashtirish, o'rgatish orqali o'rganish bilan birga o'quvchilarning ichki kechinmalarini namoyon qilishning muhim shartidir.

5. Zamonaviy usullar o'quvchilarni faqat o'qishga emas, balki o'qib o'rganish, o'rgatib o'rganish va o'rganib o'rgatishga hamda shu ma'lumotlarni amalda hayotga tatbiq etishga yo'naltirilgan yondashuvlar tizimidir.

6. Xalq og'zaki ijodi namunalarini zamonaviy interfaol usullar yordamida o'rgatilsa, o'quvchilar asarning asl badiiy qimmatini anglaydi; obrazlarga hayotiylik nuqtai nazaridan yondashadi; ularda samarali muloqot va o'z fikrini to'g'ri, ravon, ifodali bayon etish hamda asosli himoya qilish ko'nikmalari rivojlanadi.

7. O'qitishning zamonaviy usullari har turli bo'lib, ularning hammasi ham har qanday didaktik usullar kabi o'qituvchidan alohida tayyorgarlik ko'rishni talab

qiladi. Chunonchi vaqt, maydon va inson resurslaridan o'rinli va maqsadli foydalanish darsdan kutilgan natijani kafolatlovchi muhim omildir.

Tadqiqot natijalaridan chiqarilgan xulosalarga tayanib, shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarini maqsadli tashkil etish bo'yicha quyidagi **tavsiyalarni** ilgari suramiz:

1. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ta'lim jarayonida xalq og'zaki ijodi namunalarini zamonaviy usullarda o'qitish metodikasi bilan qurollantirishga erishish.

2. Ta'lim tizimida "ta'lim texnologiyasi", "pedagogic texnologiya", "metod", "usul" terminlarini qo'llashda turli xilliklar kuzatildi. Ta'lim tizimida qanday metoddan foydalanishni, uni amalga oshirish usullarini tanlashni o'qituvchi ixtiyoriga berish maqsadga muvofiqdir.

3. Kichik guruhlardagi o'quvchilar sonining 4 nafardan kam, 6 nafardan ortiq bo'lmasligiga qat'iy amal qilish, kichik guruhlarning har bir a'zosi o'qituvchi tomonidan alohida vazifa bilan ta'minlanishi shart.

4. Xalq og'zaki ijodi namunalarini o'qitishda ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan didaktik vositalar to'lamini yaratish, bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda innovatsion tevnologiyalarga doir ko'rgazmali materiallarni nash qilish.

1-ilova

3-sinf O'qish darsligidagi "Ilmning omonati" (rivoyat) mavzusida
1 soatlik dars ishlanma

2019 -2020 o'quv yili

Sinf : 3

Mavzu: "Ilmning omonati" (Rivoyat).

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad:

O'quvchilarning rivoyat janri haqidagi bilimlarini boyitish. Rivoyat matnini ifodali, rollarga bo'lib o'qish, savollar tuzish ko'nikmalarini takomillashtirish. To'g'ri va ravon o'qishga o'rgatish.

Tarbiyaviy maqsad:

O'quvchilarda rostgo'ylik, halollik, mehnatsevarlik, zukkolik sifatlarini tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad:

O'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish, lug'at ustida ishlash, obrazli, ongli va ifodali o'qish sifatlarini takomillashtirish.

Dars turi: Yangi tushuncha va bilimlarini shakllantirish.

Dars metodlari: suhbat, savol-javob, interfaol ta'limiy o'yinlar, "BBB", "ASSESSMENT" metodi.

Dars jihozi: darslik, videolavhalar, ko'rgazma va tarqatma materiallar, mavzuga oid rasmlar tasvirlangan slaydlar.

Darsda shakllantiriladigan kompetensiyalar:

Tayanch kompetensiyalar:

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi: o'z yoshiga mos kitoblarni, gazeta va jurnallarni tanlay olish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi: badiiy asarda aks etgan qahramonlarga qarab holis va jiddiy mulohaza yuruta olish.

Milliy va umummadaniy kompetensiyasi: asarda aks etgan g'oyalarni anglay olish.

Shaxs sifatida o'z-ozini shakllantirish kompetensiyasi: turli yo'nalishdagi (ertak sarguzasht, hikoya, masal) kitoblarni muntazam o'qib o'rganib borishga o'rgatish; yaxshilik va yomonlikni bir-biridan farqlay olish va yaxshi fazilatlarni o'zida aks ettirish.

Fanqa oid kompetensiya :

1. *Adabiy-nutqiy kompetensiyasi:*

- ixcham matn asosida yaratilgan audiomatn, videotasvirlarni tinglab tushuna oladi;
- ertak, topishmoq, maqol, tez aytish, rivoyat, masal, xalq qo'shiqlari, hikoya, she'rlarni o'qib tushunadi va mazmunini qayta so'zlab bera oladi.

2. *Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:*

- xalq og'zaki ijodi namunalarini (ertak, topishmoq, maqol, masal, tez aytishni) farqlay oladi;
- o'rganilgan asarlarning nomi, muallifi, mazmuni va qahramonlarini ajrata oladi;
- asar qahramonlariga munosabat bildiradi;

Dars jarayoni va texnologiyasi.

Bosqich	Bajariladigan ish mavzusi	Metod	Vaqt
1-bosqich. Tashkiliy qism.	O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinf o'quvchilarining darsga tayyorgarligi tekshiriladi.	"Tez javob" didaktik o'yini.	3 daqiqa.
2-bosqich. Uy vazifasini so'rash va mustahkamlash	Dars shiori tanlanadi. Dars davomida rioya qilinishi lozim bo'lgan qoidalar belgilanadi. O'tgan darsni so'rab baholash, so'zlash malakalarini tekshirish.	Suhbat "Zanjir" usuli Test	10-daqiqa.
3-bosqich. Darsning borishi.	Yangi mavzuni tushuntirish. Kirish suhbat. Rivoyatni o'qish. Lug'at ishi. Mavzuga oid slaydlar ko'rsatiladi. Dam olish daqiqasi.	Izohli va ifodali o'qish. Suhbat. Namoyish	12-daqiqa
4-bosqich. Mustahkamlash.	Darslik bilan ishlanadi. Rollarga bo'lib o'qish. "BBB" metodi qo'llaniladi. Mustahkamlash uchun savollarga javob beriladi. Test bajariladi. Tarqatma materiallarga javob beradilar.	Obrazli oqish Sahna ko'rinishi. BBB metodi. Savol-javob	15-daqiqa.
5-bosqich. Dars yakuni va baholash.	O'quvchilarning darsda ishtiroki hisobga olinib, baholari e'lon qilinadi.	Baholash.	3-daqiqa.
6-bosqich. Uyga vazifa berish.	Rivoyatni o'qish, qayta hikoya qilish, rasm chizish. "ASSESSMENT" metodini bajarish.	Tushuntirish	2-daqiqa.

Darsning borishi:
I.Tashkiliy qism.

Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O'quvchilarni darsga hozirlash.

II. Uyga vazifani so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.

O'quvchilar uyga berilgan vazifa Tolib Yo'ldoshning "Mohir qo'llar qo'shig'i" she'rini so'rab baholanadilar. She'rni "Zanjir" usulida yoddan aytib beradilar.

III. Yangi mavzuni tushuntirish.

O'qituvchi yangi mavzuni e'lon qiladi:

Bugun biz "Ilmning omonati" rivoyati bilan tanishamiz.

O'quvchilarga rivoyatni animatsiyali lavha orqali taqdim etiladi.

Rivoyat mazmuni haqida nimalarni tushunganliklari so'raladi.

O'quvchilar ketma-ket rivoyatni o'qiydilar. Asar mazmuniga o'xshash asarlarga namunalar keltiradilar.

Ilmning omonati

(Rivoyat)

Qadim zamonda usta temirchi bo'lib, bu hunarni ipidan ignasigacha bilar ekan. Bundan tashqari u gullarni juda sevar va ustaxonasining oldida g'aroyib gullarni parvarish qilar ekan. Temirchi qarib kuchdan qola boshlaganda, shogird olishni e'lon qilibdi. Uning oldiga uchta yigit kelib, shogirdlikka tushmoqchi ekanliklarini aytishibdi. Temirchi yigitlardan bittasini tanlab olish uchun ularni sinab ko'rmoqchi bo'libdi. Har biriga kichkina xaltachalarda o'zi parvarish qilayotgan gullarning urug'laridan beribdi va: „Men muhim ish bilan uzoq safarga ketyapman. Qaytgunimcha mana shu urug'larni ehtiyot qilib saqlanglar. Urug'larni saqlab, menga qaytargan yigitga temirchilik hunarini o'rgataman“, — debdi.

Birinchi yigit urug'larni uyiga olib borib, temir sandiqqa solib qo'yibdi. U urug'larni mana shunday saqlamoqchi bo'libdi. Ikkinchi yigit gulchining do'koniga borib, urug'larni sotibdi va temirchi qaytganida xuddi shunday urug'larni sotib olishini do'kondorga tayinlabdi. Uchinchi yigit esa urug'larni hovlisiga va uyi atrofiga ekib, ulardan o'sib chiqqan gullarni parvarishlay boshlabdi.

Oradan ancha vaqt o'tib, temirchi safardan qaytibdi. U uchala yigitni huzuriga chaqiribdi.

61

Birinchi yigit temir sandiqda turgan urug'larni olib boribdi. Temirchi ularni ko'rib: „Sen ularni o'ldiribsan, endi ular hech narsaga yaramaydi. Demak, sen hunarga ham shunday munosabatda bo'lasan“, — debdi.

Ikkinchi yigit gul do'konidan sotib olgan urug'larini olib kelib ko'rsatibdi. Temirchi ularni ko'rib: „Bular men senga bergan urug'lar emas, sen ularni sotib yuborib, bugun boshqa urug' olib kelibsan“, — debdi.

Uchinchi yigit ekan gullarining urug'larini yig'ib olib boribdi. Temirchi ularni ko'rib: „Mana shular men bergan urug'lar, sen ularni hatto ko'paytirib kelibsan. Demak, sening o'rgangan hunaringdan hamma bahramand bo'ladi“, — deb shogirdlikka shu yigitni qabul qilibdi.

Tolib Yo'ldosh

Rivoyatda uchragan notanish so'zlar yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi.

Lug'at ishi :

yaramaydi – yaroqsiz

huzuriga – yoniga, oldiga

Dam olish daqiqasi.

Polaponman don bering,

Menga ushoq non bering.

Suyib – suyib erkalab,

Tanamga ham jon bering.

IV.Yangi mavzuni mustahkamlash.

Darslik bilan ishlash:

Darslikdagi savollar:

1. Temirchi usta shogirdlarni qaysi yo'l bilan tanlab oldi?
2. Siz ikki yigitning tutgan yo'liga qanday baho berasiz? Hunar haqida maqollar ayting.

Sahna ko'rinishi tayyor bo'lguncha qolgan o'quvchilar quyidagi jadvalni to'ldiradilar.

“BBB” metodi shartlarini bajaradilar.

Hunar o'rganish haqida “BBB” metodi:

Bilardim	Bilib oldim	Bilmoqchiman

O'quvchilar “Ilmning omonati” rivoyatini rollarga bo'lib, obrazli o'qiydilar. Matn mazmunini sahna ko'rinishi sifatida ko'rsatib beradilar. Qolgan o'quvchilar esa test topshiriqlarini bajaradilar.

Test.

1. ... gullarni juda sevar, ishini ipidan ignasigacha bilar edi.

A) Usta temirchi

B) Temirchining bog'boni

C) Temirchining qizi

D) Kichkina shogirdi

2. Kim gulchining do'koniga borib gul urug'larini sotib, temirchi qaytganida yana shunday urug'larni sotib olishini aytgan edi?

A) Birinchi yigit

B) Ikkinchi yigit

C) Uchunchi yigit

3. Mehnatsevarligi uchun ham gullarni uyi atrofida parvarishlagan yigit qaysi edi?

A) Birinchi yigit

B) Ikkinchi yigit

C) Uchunchi yigit

4. Temirchi kimga qarata "Sen ularni o'ldiribsan, endi ular hech narsaga yaramaydi. Demak, sen hunarga ham shunday munosabatda bo'lasan" degan edi?

A) Birinchi yigitga

B) Ikkinchi yigitga

C) Uchunchi yigitga

5. Temirchi "Mana shular men bergan urug'lar, sen ularni hatto ko'paytirib kelibsan. Demak, sening o'rgangan hunaringdan hamma bahramand bo'ladi" deya kimga aytgan edi?

A) Birinchi yigitga

B) Ikkinchi yigitga

C) Uchinchi yigitga

Tarqatma materiallari ham tarqatiladi. Savollar:

1. Sizningcha, rivoyatdagi usta temirchi qanday shaxs sifatida gavdalantirilgan?

2. Temirchining shogirdlikka olishdagi shartini qanday izohlaysiz?

3. Shogirdlikka olinadigan yigitlarni bunday sinab ko'rilishining sababi nima deb o'ylaysiz?
4. Birinchi shogirdga munosabatingizni bildiring. Sizningcha, u nega bunday qildi?
5. Ikkinchi shogirdning tutgan yo'li qaysidir ma'noda to'g'ri emasmi, u gullarni parvarish qilishga ketadigan vaqtida boshqa bir foydaliroq yumush bilan band bo'lgandir, balki?
6. Siz ham uchinchi yigitning tutgan yo'lini tanlarmidingiz? Yana boshqa yo'li ham bormi?

V. Darsga yakun yasash va baholash.

O'quvchilarga mavzu yuzasidan tushunganlarini, rivoyat mohiyatini qay darajada anglaganliklarini bilib olish uchun mavzu bo'yicha 1 tadan gap tuzdiriladi.

O'quvchilar javoblari umumlashtirilib, dars xulosalanadi. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar baholanadi.

VI. Uyga vazifa berish.

Uyga vazifa "Ilmning omonati" rivoyatini ifodali o'qib, ro'lga kirishib so'zlab berish. "ASSESSMENT" metodi jadvalini to'ldirib kelish.

TEST	T-SXEMA	
1. Rivoyat mazmuni nima haqida? A) Gul urug'larini asrash haqida B) Shogird tanlash shartlari haqida C) Ilmning qadr-qimmati haqida 2. Ikkinchi yigitning tutgan yo'li uning qanday inson ekanligidan dalolat? A) Mehnatsevar B) Yalqov	Usta temirchi	
	Ijobiy jihatlari	Salbiy jihatlari

C) Ishbilarmon	
GLOSSARY	AMALIY KO'NIKMA
Hunar – Mehnatsevarlik – Farosatilik – Yalqovlik –	Rivoyatga mos rasmini chizing.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rasmiy hujjatlar va ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

- 1.1. Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida – PV-6927. 29.10.2020-yil.
- 1.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo Respublikasiyicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.
- 1.3. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni.–T.: 2020.
- 1.4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 1992.– 46 b.
- 1.5. O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”. /Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: 1997. - 64 b.
- 1.6. Mirziyoyev Sh. M. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida P/F. 2017. 12- yanvar.
- 1.7. Mirziyoyev Sh.M “Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.” - T.: O'zbekiston, 2017.

2. Kitob va turkum nashrlari:

- 2.1. Abu Ali Ibn Sino. “Tib qonunlari”, 3 jildlik, 1 jild, T., 1994.
- 2.2. Babanskiy Yu.K. Hozirgi zamon umumiy ta'lim maktabida o'qitish metodlari. –T.: “O'qituvchi”, 1990. – 228 b.
- 2.3. Boymurodova G va b.q. 3-sinf o'qituvchilari uchun ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo'yicha metodik qo'llanma. -T.: «Sharq» – 2016.
- 2.4. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi. –T.: “O'qituvchi”, 1999. – 29 b.

- 2.5. F.Qodirova, Sh.Tashpulatova. Bolalar bog'chasida metodik ishlar (darslik). - T.: «Voriz nashriyot», 2012.
- 2.6. Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. –T.: “Fan”, 2000. -128 b.
- 2.7. Hayot uchun saboqlar. BMT Bolalar jamg'armasi. O'zbekiston, 2003. – 154 bet.
- 2.8. Jumanioyozova M, Qalandarova III. Boshlangich sinf o'qish darslarida dostonlardan parchalarni o'qish metodikasi //Tafakkur ziyosi, - Urganch, 2010. 60- 63- betlar.
- 2.9. Jo'rayeva M. O'zbek folklorida topishmoq (monografiya). – Toshkent: “Fan”, 2012.
- 2.10. Karimov I. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. –T.: “O'zbekiston”, 2009.
- 2.11. Karimov I. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
- 2.12. Madayev O. O 'zbek xalq og'zaki ijodi. –T.: umtoz so'z, 2010. -228 b.
- 2.13. Mirzayeva I. “Boshlang'ich siniflarda xalq og'zaki ijodini o'rganish. –T.: “O'qituvchi”, 1979.
- 2.14. Mullaboyev T. Topishmoqlar. - T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001. -24 b.
- 2.15. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. –Qarshi: “Nasaf”, 2000. – 79 b.
- 2.16. Pedagogika tarixi. K. Xoshimov, S. Nishonova, M. Inomova va boshq. –T.: “O'qituvchi”, 1996. -488 b.
- 2.17. Родари Ж. Грамматика фантазий. Перевод с итальянского Ю. А. Добровольской. – М.: “Прогресс”, 1978. С.190.
- 2.18. Safarov O. Folklor - bebaho boylik. - T.: Muharrir, 2010.
- 2.19. Sariboyeva M. Umumta'lim maktablarida Alisher Navoiy epik asarlarini interfaol usullarda o'rganish –T.: «Adib» 2014. -148 b.

- 2.20. Sarimsoqov B. Marosim folklori. O'zbek xalq ogzaki poetik ijodi. - T.: O'qituvchi, 1990. -116 b.
- 2.21. Стоюнин В. Я. Избранные педагогические сочинения. –М.: «Педагогика», 1991.С. 361.
- 2.22. Tolipov O'., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. (O'quv qo'llanma).-Toshkent: "Fan", 2006. - 66 b.
- 2.23. Umarova, X. Hamroqulova, R. Tojiboyeva. O'qish kitobi. 3- sinf uchun darslik. -T.: „O'qituvchi“ NMIU, 2016. – 216 b.
- 2.24. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. –T.: “O'qituvchi”, 1996.
- 2.25. Yo'ldoshev J. G'. Ta'lim yangilanish yo'lida. –T.: “O'qituvchi”, 2000. -207 b.
- 2.26. Yo'ldoshev J, Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. –T.: “O'qituvchi”, 2004. -104 b.
- 2.27. Yo'ldoshev J, Yo'ldosheva F., Yo'ldosheva G. Interfaol ta'lim – sifat kafolati. (Bolaga do'stona munosabatdagi ta'lim). -T.: 2008. -151 b.
- 2.28. Ziyomammedov B. Ilg'or pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: “Ibn Sino”, 2001. -79 b.
- 2.29. O'qish kitobi. 4-sinf: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik / S. Matchonov va boshq. - Qayta ishlangan va to'ldirilgan oltinchi nashr. - Toshkent.: «Yangiyo'l poligraf servis», 2017.
- 2.30. Norboyeva S., Fayzullayev A., Mamarahimov Sh. Ta'lim tizimi va boshlang'ich sinflarda pedagogik texnologiyadan foydalanish. “Ziyo” nashriyoti. Guliston - 2020.

3. Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferati

- 3.1. Абдуллажонов М.А. Формирование профессиональных качеств будущего учителя в процессе обучения в педвузах: Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. –Т.: 1991. – 21 с.

- 3.2. Abdullayev X.D. Maqollarning “Qutadg’u bilig” poetikasidagi o’rni va badiiy estetik funksiyalari: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – T., 2005. – 23 b.
- 3.3. Bobomurodova A.Ya. Ona tili ta’limi jarayonida o’yin-topishmoqlardan foydalanish: Ped. fan. nom... diss. avtoref. 1997. – 20 b.
- 3.4. Husanboeva Q. Adabiy ta’lim jarayonida o’quvchilarni mustaqil fikrlashga o’rgatishning ilmiy-metodik asoslari. Ped.fan.dok. ...diss. -T.: 2004. -262 b.
- 3.5. M. Sariboyeva. Umumta’lim maktablarida Alisher Navoiy epik asarlarini zamonaviy usullarda o’rgatish. Pedagogika fanlari nomzodlik dissertatsiya ishi. –T.: 2011. – 163 b.
- 3.6. Niyazmetova T. IV-VII sinflar o’zbek adabiyoti darslarida o’quvchilarning mustaqil ishlari metodikasi. Ped. fan. nom... diss.avtoref. –T.: 1979. –19 b.
- 3.7. Tolipova J. Noan’anaviy ta’limning didaktik asoslari. Ped. fan. nom. ...diss. – T.: 1995. -182 b.
- 3.8. Yo’ldoshev Q. Yangicha pedagogik tafakkur va umumta’lim maktablarida adabiyot o’qitishning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fan. dok... diss. –T.: 1997. –306 b.

4. Journallardagi maqolalar

- 4.1. Abduqodirov A. Umumiy o’rta ta’lim maktablarida axborot texnologiyalaridan foydalanish muammolari //Uzluksiz ta’lim. 2002. № 4. 60-73-b.
- 4.2. Abduvalidov E. Yangi pedagogic texnologiyalar muammolari. //Til va adabiyot ta’limi. 2001. №1. –B. 4-7.
- 4.3. Bahodirova N. Eshitib anglash boshqacha. “Yoshlar ovozi” gazetasi. 19. 15-son.
- 4.4. Jumaniyozova M, Qalandarova III. Boshlangich sinf o’qish darslarida dostonlardan parchalarni o’qish metodikasi //Tafakkur ziyosi, XXI tom.-Urganch, 2010, 60- 63- betlar.

- 4.5. Jabborov Sh. “Xalq ogʻzaki ijodidan foydalanish. //“Boshlangich taʼlim”, 2011, 2-son, 28-29-betlar.
- 4.6. Toʻraqulov X, Baltayeva A. Milliy-maʼnaviy qadriyatlarni shakillantirish. //Boshlangich taʼlim, 2008, 11-son, 4-bet.
- 4.7. Vahidova H. Milliy gʻurur ruhida tarbiyalash (Xalq ogʻzaki ijodi materiallari asosida) //Boshlangʻich taʼlim, 2009, 14-son, 2-3-betlar.
- 4.8. Vahidova H. Milliy gʻurur ruhida tarbiyalash (Xalq ogʻzaki ijodi materiallari asosida) //Boshlangʻich taʼlim, 2009, 14-son, 2-3-betlar.

5. Konferentsiya ishlariga havolalar:

- 5.1. Pedagogik va axborot texnologiyalari: yutuqlar va istiqbollari // Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari.–T.: OʻzPFITI, 2003. – 250 b.

6. Internetdan olingan adabiyotlar:

- 6.1. www.Google.co.uz
6. 2. www.ta'lim.uz
6. 3 www.kitob.uz
- 6.4. e-adabiyot.uz >...>
- 6.5. www.ziyonet.uz...
- 6.6. wikipedia.org/wiki